

International Scientific Conference

25 June, 2022 YEAR

ISSN: 2181-3515

# International Conference on Innovative Development of Education 2022/2

ERUS.UZ

Google Scholar

PKP | INDEX

Uzbekistan, Tashkent

# "EDUCATIONAL RESEARCH IN UNIVERSAL SCIENCES"



## "INTERNATIONAL CONFERENCE ON INNOVATIVE DEVELOPMENT OF EDUCATION 2022/2"

**erus.uz**

**Languages of publication:** o'zbek, english, русский, қазақ, точик

**TASHKENT, UZBEKISTAN**

**2022/ JUNE 25**

# DASTURIY VOSITA YORDAMIDA TUPROQ HARORATIGA ISHLOV BERISH NAMLIGI VA CHUQURLIGINING BARQARORLIGINI ANIQLASH USULI

**Abdujalilov Sodiqjon Muhammadamin o'g'li**

Stajyor o'qituvchi, Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan shahri

sodiq.abdujalilov1992@gmail.com

**Parpiyev Sanjarbek Po'lat o'g'li**

Magistrant, Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan shahri

sanjarbekparpiyev5@gmail.com

**Annotatsiya:** Raqamli qurilma orqali dasturiy ta'minotdan foydalangan holda "Aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasiga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy sinalgan shakllarini joriy etish, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishini maksimal darajada avtomatlashtirish, hosildorlikni samaradorligini oshirish.

Hozirda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida 2022 yildan "aqlli" qishloq xo'jaligi uchun avtomatlashtirilgan tizimlar va texnologiyalarning ommalashishi bo'yicha bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu borada Respublikamizda ham qishloq xo'jaligiga innovasiyalarni joriy etish sohasida eng avvalo, mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi "Aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasiga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy sinalgan shakllarini joriy etish, agrar sektorda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini maksimal darajada avtomatlashtirish, hosildorlikni jiddiy oshirish va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash, shuningdek, mamlakat oziqovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi innovasion g'oyalar,

ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish kabi vazifalar asosiy faoliyat yo‘nalishlari etib belgilab olingan.

Bundan tashqari axborot kommunikasiyalari texnologiyalari tizimlari ko‘plab sohalarni avtomatlashtirishga mo‘ljallangan, masalan energetika, mashinasozlik, avtomobilsozlik, qishloq xo‘jaligi, metallurgiya, issiqliq ta’minoti va hakozolar shular jumlasidandir.




**1-rasm. Arduino qurilmasining texnik vositalari**

**Arduino** qurilmasi – bu yetarlicha funksional va o‘zgaruvchan platforma bo‘lib o‘rnatilgan tizimlarni ishlab chiqishda tashqi kurilmalar bilan o‘zaro bog‘lanishda katta imkoniyatlarni beradi. U mikrokontrollerlarni o‘rganish uchun juda yaxshi mos keladi va kichik turdagi mashina va agregatlar loyihalarini yaratishga xizmat qiladi. Oldinlari biror bir mikrokontroller asosidagi qurilmani yig‘ish uchun sxematexnika asosini, prosessor, qurilmalarni assembler tilida dasturlashni bilish talab etilar edi. Bundan tashqari qurilmani ishlatishda ma’lumotlarni tahrir qilish, to‘plash, uzatish va shu kabi ko‘shimcha qurilmalarni ishlatish talab qilinadi. Bunday holatda ko‘plab foydalanuvchilar o‘z loyihalarida mikrokontrollerlardan ko‘p vaqt foydalanmaganlar.

Hozirgi kunda Arduino qurilmasini ko‘plab soxalarda qo‘llab kelinmoqda shuningdek qishloq xo‘jaligida ham tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlash chuqurligi va uning barqarorligini mashinalashgan usulda aniqlovchi qurilma ishlab chiqish imkonini beradi, qurilmani

qo'llash tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligini o'lchash va ularga ishlov berishga sarflanadigan mehnat va boshqa xarajatlarni kamaytiradi, ish unumi va o'lchov aniqligi ortadi. Ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi(bir tekisligi) barcha tuproqqa ishlov berish mashinalarining asosiy ish ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ishlov berish chuqurligi talab darajasida bo'lsa va uning barqarorligi, ya'ni bir tekisda bo'lishi ta'minlansa ekinlarni bir tekis rivojlanishi va pishib yetilishiga hamda ulardan yuqori hosil olinishiga erishilinadi, aks holda esa, ya'ni belgilangan ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi ta'minlanmasa o'simliklarni notekis rivojlanishi va pishib yetilishi kuzatiladi, hosildorlik 12-15 foizga pasayadi. Shu sababli ham har bir tuproqqa ishlov berish mashinasi uchun ishlash chuqurligi va uning belgilangandan chetlanishlari(notekisligi)ga qat'iy talablar qo'yilgan. Hozirgi davrda tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi sermehnat hamda aniqligi past bo'lgan usullarda aniqlanmoqda (ko'ndalang va bo'ylama profillarni olish, ishlov berilgan qatlamga chizg'ich botirish, egat o'lchagich bilan egat devori balandligini o'lchash va boshqalar). Bu borada Qishloq xo'jaligi mexanizasiyalash ilmiy-tadqiqot instituti va Namangan muhandislik-qurilish instituti olimlari, professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda tuproqqa ishlov berish mashinalarining ish ko'rsatkichlarini mashinalangan usulda aniqlaydigan axborot kommunikasiya texnologiyalari bilan jixozlangan qurilmalar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilmoqda, ya'ni bunda tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligini mashinalashgan usulda o'lchovchi va bir yo'la uning statistik xarakteristikalari(o'rtacha arifmetik qiymat, o'rtacha kvadratik chetlanishi va variasiyalanish koeffisiyenti)ni aniqlovchi qurilma ishlab chiqish rejalashtirilgan.







1-elektron chizg'ich; 2-pararalegrom mexanizm, 3-g'ildirak

**2-rasm. Ishlov berish chuqurligini burchak o'lchagich elektron chizg'ich yordamida aniqlash qurilmasining konstruktiv sxemasi**

Elektron chizg'ichdan kelayotgan signalni qayta ishlash va uni uzatish uchun hamda qabul qilish uchun S++ tilida maxsus dastur ishlab chiqildi. Bu dastur ishlov berish chuqurligi bo'yicha ko'rsatkichlarni mashinalashgan usulda aniqlash imkonini beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Solutions Of Boundary-Value Problems For A System Of Differential Equations Of The Fourth Order With The Method Of Finite Differences, Turkish Journal of Computer and Mathematics Education Vol.12 No.10 (2021), 2209-2213

2. Problems of Development and Solution of Technological Processes of Cleaning Cotton with Small PJAEE, 17 (7) (2020) Dispersion Particles and Dust2.

3. Abdujalilov S, Parpiyev S, Abdulvoxidov T. Tibbiyot sohasida axborot kommunikasiya vositalarini qo'llash. ularni modellashtirish va optimallashtirish. https://doi.org/10.5281/zenodo.6011643

4. Abduvaxobov D., Xaydarov K., Madraximova M. Ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligini avtomatlashtirilgan usulda o'lchovchi qurilma // "Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish, fan va ta'limning 10

# IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHTIRISHDA INKLYUZIV TA’LIMNING O‘RNI

**G‘aniyeva Adiba Tursinboy qizi**

Urganch davlat universiteti

E-mail: Adibaxon97.@mail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni oilada tarbiyalash va inklyuziv ta’limga jalb qilish, ijtimoiy hayotga moslashtirish hamda ularning huquqlarini himoya qilish haiqda ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Imkoniyati cheklangan, Inklyuziv ta’lim, ta’lim, tarbiya, korreksiya, ma’naviy resurslar, pedagog.

# THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE ADAPTATION OF CHILDREN WITH DISABILITIES TO SOCIAL LIFE

**Annotation:** This article provides information on raising children with disabilities in the family and involving them in inclusive education, adapting them to social life and protecting their rights.

**Keywords:** Disabled, Inclusive Education, Training, correction, spiritual resources, pedagogue.

Maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi ularni o‘qish va yozishga o‘rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko‘mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soxa xodimlari hamda nogron bolalar

ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar jumlasiga kiradi. Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muamolarini ular o‘zlari yashab turgan muxitdan, oiladan uzoqda ta’lim tarbiya berish bilan hal qilib bo‘lmaydi. Jamiyat o‘z a’zolariga javobgarlikni o‘z bo‘yniga olmas ekan, cheklab qo‘yilgan huquq va

imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integrasiyaga erishish qiyin. Maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar.

Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish ya'ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

**Birinchidan,** alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan

birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanadilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

**Ikkinchidan,** nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon

o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi. Bu ishlarni muvaffaqiyati xar bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar-o'quvchilarga ta'lim berishda, otaonalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi. Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-xunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalandilar, ijtimoiy hayotda teng xuquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar. Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregasion-maxsus, yopiq turdagi muasasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi boalalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar.

Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Inklyuziv ta’lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o‘z oilasi mahallasi va qarindosh-urug‘lari davrasida bo‘lishga imkon beradi.

Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo‘lgan internatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to‘sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo‘lgan bola diydasi qattiq bo‘lib o‘sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Inklyuziv ta’lim barcha uchun ta’lim sifatini yaxshilaydi. Inklyuziv ta’lim ta’lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalrni umumta’lim muassasalariga qabul qilinishi o‘quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko‘proq o‘quvchilarni qamraydigan yangi o‘qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Inklyuziv ta’lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi. Jamiyatda nogironlargan nisbatan yanglish fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma’lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta’lim tarbiya berilishi bunga sababa bo‘lishi mumkin. Bunday munosabatni yo‘qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma’lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o‘xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta’lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o‘zlari singari bola ekanliklarni anglab, kasitmasliklarini ta’minlagan bo‘lar edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta’lim tizimini joriy etish uchun avvalo jamiyatni, maktabdagi sog‘lom bolalarni ham, imkoniyati cheklangan bolalarni ham bunga moslashtirish kerak. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfda tahsil olayotgan bolalar nogironlik nima ekanligi, bunday bolalarning ustidan kulmaslik kerakligini bilishmaydi. Shuning uchun ham ular inklyuziv ta’lim davomida nogironligi bo‘lgan tengdoshining ustidan kulishi, masxara qilishi, uni ajratib qo‘yishi, kamsitishi kabilar kuzatilsa, bu albatta nogironligi bo‘lgan bolaning ruhiyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom bolalar orasida o‘zini kamsitilganday his etish bola uchun doimiy ruhiy zo‘riqish ostida yashashga sababchi bo‘ladi. Maxsus

maktab-internatlarda esa nogironlik jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan bolalar ta'lim va tarbiya olishi jarayonida atrofidagi tengdoshlari ham o'ziga o'xshashligi, u kabi kasallik bilan og'rigani uchun ham ortiqcha ruhiy bosimlar kuzatilmaydi va ular o'zlarini atrofdagilardan zaif va kuchsizday his etishmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishida nihoyatda yuqori e'tiborni talab qiluvchi umumta'lim tizimining sohasi hisoblansa, imkoniyati cheklangan bolalar esa jamiyatning ijtimoiy qatlamidir, chunki ularning ko'pchiligi kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetganlar. Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta'lim tadbirlariga jalb etishdir. Shundagina imkoniyati cheklangan barcha bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1.''Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish " mavzusidagi ilmiy nazariy konferensiya materiallari .Toshkent-"Uzinkomsentr"-2002 yil.

2. Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'shkil etish to'g'risida muvaqqat Nizom .O'RTIX T , 2005.

3. www.ziyo.net

4.www. pedagog.uz.

# MATLAB DASTURI SIMULINK PAKETI YORDAMIDA ELEKTR TOKINI O‘ZGARMAS HOLATINI IDENTIFIKASIYALASH MODELINI YARATISH

**Abdujalilov Sodiqjon Muhammadamin o‘g‘li**

Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan shahri.

sodiq.abdujalilov1992@gmail.com

**Parpiyev Sanjarbek Po‘lat o‘g‘li**

Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan shahri.

sanjarbekparpiyev5@gmail.com

**Annotatsiya.** MATLAB dasturi, Simulink bo‘limi orqali biz energetika masalalarini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lamiz, chunki ushbu dastur orqali turli xil sxemalarni shakillantirib uni vizualni ko‘rinishga keltirishimiz mumkin bo‘ladi. Simulink paketi orqali tok kuchaytirgich sodda xemasini shakillantirib natija olishimiz mumkin bo‘ladi.

Biz quydagi masalani MATLAB dasturi simuling paketi yordamida **tok kuchaytirgichni sxemasini ixtiyoriy kiymatlar uchun ishlaydigan qurilmani tadbiq etishni** ko‘rib chiqamiz.

Energetika soxasida mutaxassislar tayyorlashda IT texnologiyalarini o‘rni va zamonaviy kompyuterlarda dasturiy paketlar yordamida masalalrni yechish ularni vizualniy ko‘rinishlarni namoish etish natijalarni aniq yechimini olish uchun biz dasturlar peketidan quydagi dasturni tanlab olamiz.

MATLAB dasturi yordamida energetika masalalrini Simulink bo‘limi orqali tur xil mantiqiy amalllarni va kuchlanishlarni xisoblashimiz mumkin bo‘ladi. Simulink paketi orqali tok kuchaytirgichni sxemasi va dasturini ketma ketlik asosida bajarib natija olishimiz mumkin bo‘ladi.

MATLAB dasturinig Simulink muxitida boots tipidagi stabilizator sxemasi quyidagicha ko'rinishga ega.

Parametrik doimiy voltaj stabilizatori sifatining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun biz uni kirishda voltaj o'zgarishi uchun funksional diagramma sifatida taqdim etamiz 1-rasm.




1-rasm

Quvvat manbai sifatida biz MATLAB dasturining Simulink kutubxonasidan doimiy voltaj manbasini ifodalovchi kuchlanish manbai blokini tanlaymiz. Uning parametrlarida biz kuchlanishni 48V ga o'rnatamiz . Tok (**L, R3**) RLC davri bo'lgan Series **RLC** Branch (**L, R3**) blokini tadqiq qilinadi. U quydagicha parametrga ega




2-rasm

Mosfet bloki yordamida trazistor (VT)da modellashtirilgan. Konverterdagi tranzistor va diod asosiy rejimda ishlagani uchun ularning matematik modellari uchun himoya davrlarining mos parametrlarini tanlaymiz.

Mosfet modeli ma'lumot chiqishiga ega, biz uni osiloskop modeli bilan bog'laymiz (Scope1). G kiritish tranzistorning eshigini ifodalaydi va impuls generatori tomonidan impulslanadi. Mosfet blokining parametrlari 3-rasmda keltirilgan. Diod blokini simulyasiya qiladi. Parametrlar 4-rasmda keltirilgan.







3-rasm 4-rasm

Yuk (R2) va filtr (C) RLC seriyali filiallari tomonidan simulyasiya qilinadi.







5-rasm. **(R2)** 6-rasm **(C)**

**Stabilizator uchun biz tranzistor va diodlarni tanlab olamiz**

→ Transistor: 2SK133

→ Drenaj manbai kuchlanishi 120V

→ Maksimal drenaj manbai oqimi 7A

→ Darvozaning kuchlanishi maksimal 14V

→ Qatlam manbai kuchlanishini uzilishi 1,5V

→ Derejan oqimi 3A

→ Imkoniyatlarni yopish uchun manba 600pcF

→ Ko‘tarilish vaqti maksimal 180 soat

→ Diod: 2D213A

→ Maksimal chastota 50000Hz

→ Maksimal old oqim 10A

→ Maksimal teskari kuchlanish 200V

→ Maksimal teskari oqim 200 mA

→ Imkoniyat 500pcF

→ Konverter chiqish voltaj grafigi

→ Chiqish kuchlanish grafigi osiloskopdan olingan. U voltmetrga yuk bilan parallel ravishda ulanadi.




6-rasm.

Chiqish kuchlanishining barqaror holatdagi qiymati 80,5 V ni tashkil qiladi, tranzistorning holatining nisbiy davomiyligi 0,44 ga teng. Bu sxema parametrlarini hisoblashning maqbul aniqligini ko‘rsatadi, chunki qiymatlar hisoblangandan oshmaydi. Vaqtinchalik rejimda 85V ga teng bo‘lgan haddan tashqari kuchlanish paydo bo‘ladi. Vaqtinchalik vaqt 0,01s.

Demak energetika yo‘nalishdagi talabalarga tajriba ishlarini bajarish uchun MATLAB paketining Simulink bo‘limi orqali barcha energetika masalalarini yechishda zamonaviy paketlarni qo‘llash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Dyakonov V. P. Simulink 4. Spesialnыy spravochnik. — SPb.: «Piter», 2002. — 528 s. — ISBN 5-318-00551-9.
2. Solutions Of Boundary-Value Problems For A System Of Differential Equations Of The Fourth Order With The Method Of Finite Differences, Turkish Journal of Computer and Mathematics Education Vol.12 No.10 (2021), 2209-2213
3. Problems of Development and Solution of Technological Processes of Cleaning Cotton with Small PJAEE, 17 (7) (2020) Dispersion Particles and Dust.
4. Dyakonov V. P. MATLAB 7.*/R2006/2007. Samouchitel. — M.: «DMK-Press», 2008. — 768 s. — ISBN 978-5-94074-424-5
5. Dyakonov V. P. MATLAB R2006/2007/2008 + Simulink 5/6/7. Osnovы primeneniya. Izd-ye 2-ye, pererabotannoye i dopolnennoye. Biblioteka professionala. — M.: «SOLON-Press», 2008. — 800 s. — ISBN 978-5-91359-042-8

# МАГНИЙЛИ ЎҒИТЛАР ИШЛАБ ЧИКАРИШ ЖАРАЁНИНИ ЎРГАНИШ ВА ТАХЛИЛ ҚИЛИШ

**Эркаев.А**

Профессор . Тошкент кимё-технология институти

**Сайдуллаев .С**

Магистр. Тошкент кимё-технология институти

E-mail: Sarvarbek4043@gmail.com

**АННОТАЦИЯ:** Ўзбекистон ва минтақанинг бошқа пахта етиштирувчи мамлакатларида пахтачиликда асосий дефолиант сифатида ноорганик бирикма - магний хлорат ишлатилади.

**Калит сўзлар:** магний хлорат, калийли ўғитлар, лак-бўёқ, каинит-лангбейнит рудалар

Хозирги кунда хлорли калийли ўғитларга: сильвинит, каинит,табиий рудаларни қайта ишлаш концентрланган маҳсулотлари – калий хлорид ва уларнинг концентрланган калийли маҳсулотлар билан аралашмаси киради. Хлорсиз калийли ўғитларга эса: калий сульфат, калий ва магний сульфатларнинг қўшалоқ тузи – калиймагнезия (унда оз миқдордаги калий ва натрий хлоридлари қўшимчаси бўлади); каинит-лангбейнит рудаларини флотацион бойитиш йўли билан олинадиган калий-магнийли концентрат киради.

Калийли маҳсулотлар саноатининг асосий маҳсулоти калий хлорид бўлиб, уларнинг 95% қисми минерал ўғит сифатида ишлатилади. Қолган 5% қисми калийнинг – $KOH$, $KClO_3$, $K_2CO_3$, $KNO_3$, $KCN$ ва бошқа бирикмаларига айлантирилади. Улар қора ва рангли металлургияда, қурилишда, шиша ишлаб чиқаришда, қоғоз, лак-бўёқ, чарм ошлаш саноатларида, фармацевтикада ва

бошқа соҳаларда ишлатилади.Ўғит сифатида янчилган сильвинит, аралаш ўғит (калий хлорид ва янчилган сильвинит аралашмаси) ва калий хлорид ишлатилади. Янчилган сильвинит таркибида 22% KCl (14% $K_2O$) бўлиб, ўлчами 4 мм дан йирик бўлган заррачалар 20% дан ортмаслиги керак. Аралаш ўғит таркибидаги $K_2O$ миқдори 40% дан кам бўлмайди ва $H_2O$ 2% дан ошмаслиги лозим. Таркибида 52,4% KCl (63,1% $K_2O$) бўладиган калий хлорид – рангсиз кубсимон кристаллардан иборат бўлади. Унинг зичлиги 1990 кгҒм$^3$ бўлиб, 776$^O$C да суюқланади. Калий хлориднинг табиий минерали – сильвин ва рудалари таркибида қўшимчалар бўлганлиги сабабли рангли бўлади. Калий хлориднинг 20$^O$C даги туйинган эритмасида – 25,6% ва 100$^O$C даги тўйинган эритмасида эса – 35,9% KCl бўлади.

Магний хлорат препарати хлорат тутган дефолиантлар гуруҳининг енг кўп тарқалганидир. Магний хлорат рангсиз кристаллар ҳосил қилади. Сувда ва этанолда эрийди. Унинг эриш харорати ҳарорати 165-175 °C. Магний хлорат жуда гигроскопик бўлиб, 25% нисбий намликда ҳам намликни ўзига тортади. Олти сувли магний хлорат 34.2 °C да инконгруэнт эрийди сув чиқиши билан тетрагидратга, 65 °C да - икки сувли гидратга ўтади. 125 °C да сув кристаллари йўқолиши ва газсимон моддалар чиқиши билан магний хлоратининг парчаланиши кузатилади.

Ўсимликлар ривожланишининг турли жараёнларида иштирок этувчи ва ушбу жараёнларга суний таъсир кўрсатиб уларни бошқариш имконини берувчи ўсимлик ривожланишининг бошқарувчилари, уларнинг хусусиятлари, хоссалари ва қишлоқ хўжалигидаги аҳамиятини ўрганишга бағишланган тадқиқотлар натижалари келтирилган.

Ўсимликлар қариши ва уларнинг барги тўкилишини ўрагнилган ишлар билан танишиш давомида, ўсимлик танасида барг ажралиш (абсиссия) зонасига ва ундаги фаолликнинг ортишига сабаб бўлувчи омиллар хақида қатор маълумотлар тўпланган.

Юқорида таъкидланган хоссаларга эга препаратлар олиш жараёнини ташкил этишга илмий асос бўлувчи компонентлари натрий хлорат, карбамид,

этаноламинлар ва ноорганик кислоталар бўлган физик-кимёвий системаларнинг етарлича ўрганилмаган. Бу системаларда туз кристалланиш майдонларининг чегараларини топиш ва физиологик фаолликка эга дефолиантлар олишнинг физик-кимёвий асосларини ишлаб чиқиш учун кенг ҳарорат оралиғида реаксияга киришувчи компонентларнинг турли концентрацияларида эрувчанликлари ҳақидаги маълумотлар зарур.

Бу препарат ҳидсиз ва магний хлорат дефолиантига нисбатан 2 марта кам заҳарли ҳисобланади. Ўткир заҳарлилик параметрларига кўра IV хавфлилик синфига мансуб. Тажриба ҳайвонлари учун $ЛД_{50}$ 11500-12750 мг/кг, ишчи майдон хавосидаги РЕКЧ 10 мг/м$^3$, сув йиғгичлари сувида еса 9 мг/м$^3$ ни ташкил этади. Пахта дефолиацияси учун препарат сарфи 7-9 л/га ни ташкил этади.

Юқоридагиларга боғлиқ ҳолда, бу масалаларни ўрганиш муҳим назарий ва амалий ахамият касб этади, чунки у таъсирлашувчи компонентлари кимёсини билиш, ушбу компонентлар асосида дефолиантларни олиниш, ишлатиш ва сақлаш учун оптимал технологик параметрларни топиш имконини беради.



## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР


1. Rademacher, W. Plant Growth Regulators: Backgrounds and Uses in Plant Production. *J.PlantGrowthRegul.NewYork* **34**,845872, https://doi.org/10.1007/s00344-015-9541-6 (2015).
2. Bisht, Tejpal & Rawat, Laxmi & Chakraborty, Binayak & Yadav, Vikas. (2018). A Recent Advances in Use of Plant Growth Regulators (PGRs) in Fruit Crops - A Review. International Journal of Current Microbiology and Applied Sciences. 7. 1307-1336. 10.20546/ijcmas.2018.705.159.

# MARKAZIY OSIYO VA AMIR TEMUR: AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH SIYOSATI

**Samandarov Sanjarbek Saidovich**

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti III bosqich talabasi.

e-mail: samandarovsanjar15@gmail.com

## Annotation

In this article, information will be provided on measures taken by Amir Temur's policy in Central Asia with the priority of the law and the criteria of justice in social protection of its population, ensuring their rights and interests.

**Keywords and phrases**: Central Asia, history of statehood, Amir Temur, public policy, social protection, reforms, rule of law.

## Аннотация

В этой статье будет представлена информация о мерах, принимаемых политикой Амира Темура в Центральной Азии с приоритетом закона и критериев справедливости в социальной защите ее населения, обеспечении их прав и интересов.

**Ключевые слова и фразы:** Центральная Азия, история государственности, Амир Темур, государственная политика, социальная защита, реформы, верховенство закона.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligi, ma'naviyati o'zining salohiyati, mazmuni, tarbiyaviy kuchi va ta'siri bilan xalqimiz tarixida alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham Birinchi prezidentimiz qayd etganlaridek, «...bizning tariximizda Amir Temurdek ulug' siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu o'gitlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni

yechishda bizga qo'l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o'rganmasdan, ta'riflamasdan, targ'ibot qilmasdan haqqimiz yo'q» [1: 414-b].

XIV asr o'rtalarida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, Amir Temurning siyosat maydoniga chiqishi va uning markazlashgan davlatni vujudga keltirish uchun kurashi to'g'risida so'zlashdan avval, XIV asrning 40-60 yillarida Movarounnahrda tarixiy vaziyat qanday edi, degan savolga javob berishi, ana shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolga qisqacha to'xtalib o'tishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir. Bu xususda akademik I. Mo'minov: "Bu davrda Movarounnahrda chet el qaramligidan, mo'g'ul xonligidan ajralib mustaqil, kuchli hokimiyat tuzishdan manfaatdor bo'lgan aslzodalar orasidan ayrim guruhlar yetishib chiqa boshladi" deb yozgan edi. Chig'atoy ulusi hokimi Kebekxonning 1318-1326 yillardagi ma'muriy va pul islohoti o'tkazishdan va boshqa ishlardan ham maqsadi shunday bo'lsa kerak. Chingiziylardan chiqqan xon Qozonxon ham xuddi shunday Kepekxonga o'xshab boshqacha siyosat yurgizishga harakat qildi". Amir Temur o'tkir siyosatchi bo'lgani uchun bu vaziyatni yaxshi baholadi, unga alohida e'tibor berdi. Faktlarga murojaat qilaylik. Movarounnahrning sharqiy –shimoliy tarafida joylashgan Mo'g'ilistonni olib ko'raylik. Ilyosxo'jaxon o'ldirilganidan so'ng (1369), bu mamlakatda ham feodal tarqoqlik va o'zaro urushlar kuchayib ketadi. Mamlakatning sharqiy qismida dug'lot amirlaridan Qamariddin , Yettisuv va Chu taraflarda , Anqo to'ra, Issiqko'l atrofidagi o'lkalarda Mir Karimberdi, mamlakatning yana bir tarafida Mir Haqberdi o'ziga xon, o'ziga bek bo'lib olgan edilar [2: 8-b].

Amir Temur: "Davlat asosini o'n ikki ijtimoiy toifa: "1) sayyidlar, ulamo, mashoyix, fozil kishilar; 2) ishbilarmon, donishmand odamlar; 3) xudojo'y, tarkidunyo qilgan kishilar; 4) no'yonlar, amirlar; 5) sipoh va raiyat; 6) maxsus ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotiblar; 8) hakimlar, tabiblar, munajjimlar, muhandislar; 9) tafsir va hadis olimlari; 10) ahli hunar va san'atchilar; 11) so'fiylar; 12) savdogar va sayyohlar tashkil etishini aytib o'tgan. Uning taqdirini esa uch narsa : podsho, xazina va askar hal qiladi" [3: 8-b].

Amir Temur o'zi yashab turgan jamiyatni eng yetuk ijtimoiy tizimga aylantirish, farovon hayot qurish maqsadidagina kurashib qolmay, balki bu g'oyalarning butun

dunyoda tantana qilishiga ham ishongan edi. Faqat shu maqsaddagina u harbiylik libosini kiygan edi. U ana shunday maqsadlarda jahongirlik qilgan har bir davlat boshlig‘i, asosan, to‘rt narsani xotirasida saqlash kerakligini uqtiradi: birinchidan, qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lsa, to‘g‘ri tadbir va kengash bilan ish tutish; ikkinchidan, xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ishni ko‘p o‘ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qilish; uchinchidan, o‘z atrofida aslzoda er yigitlarni (amirlarni) to‘plash va birlashtirish; to‘rtinchisi, bugungi kunning ishini ertaga qoldirmaslik [4: 117-b].

Amir Temurning jaxon xalqlari tarixi va sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi asosan quyidagilardan iborat: Markaziy Osiyo, Xuroson, Eron, Afg‘oniston xalqlarini mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod qildi, bu hududdagi siyosiy tarqoqlik va o‘zaro nizolarga barham berib, qudratli markazlashgan davlat tuzdi, Rossiyaning mo‘g‘ullar istibdodidan xalos bo‘lishiga ko‘mak berdi. Yevropa xalqlarini Usmonli turklar imperiyasi tahdididan saqlab qoldi; O‘rta Sharqda yashovchi turli tillarda so‘zlashuvchi, har xil diniy mazhablarga mansub xalqlarni bir-biriga dushmanlik kayfiyatidan xalos qildi, ularning an’analari, san’at va madaniyati yaqinlashuvini ta’minladi. G‘arb va Sharqni bog‘lab turuvchi xalqaro «Buyuk ipak yo‘li»ni qayta tikladi va rivojlantirdi. Movarounnahr shon-shuhratini dunyoga tanitdi, o‘lkaning ilmu fani, hunarmandchiligi, arxitekturasi, san’at va madaniyatini mislsiz darajada rivojlantirdi, ya’ni «Temuriylar renessansi»ga asos soldi; poyqadami yetgan joylarda islom dini mavqei va ta’sirini oshirdi, insoniyat taraqqiyotida davlatchilik tizimini yuqori pog‘onaga ko‘tardi, uni yangi qonunlar va tartib-qoidalar bilan boyitdi, harbiy san’atni mukammallashtirdi. Shariat va dunyoviy qonunlarga tayangan yangi huquqiy tizimni rivojlantirdi.

Amir Temur ramzlari, timsollari faqat davlatni idora qilish vositasi yoki tamg‘alaridan iborat bo‘lmay, balki harbiy tuzilmalarda ham qo‘llangan edi. Masalan, rus tarixchisi V. Cherevanskiy: "Temur jangovar hayotining ikkinchi yarmida qo‘shinlarini qiyomiga yetkazadi. Chunonchi bir xil rang-tusdagi otlar jamlandi. Askarlar bir xil libos kiydilar", deb yozadi [5: 86-b]. Amir Temurning harbiy yurishlari, jangu jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni alohida ta’kidlash

kerakki, uning faoliyati qo‘yilgan maqsad va rejalari jihatidan ikki bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich (1360-1386) da Amir Temur Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat tuzish yo‘lida Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo‘lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar (mulkdor dehqonlar, harbiylar, hunarmandlar, savdogarlar va ruhoniylar) yordamida tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurash olib bordi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo‘lida shubhasiz ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobiy oqibatlarga olib keldi. Mamlakat ichki kuchlarini va mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo‘hronga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulayroq sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo‘jalikning asosi bo‘lgan dehqonchilikda muayyan siljishlar ro‘y berdi. Yangi-yangi ariq (kanal)lar qazilib, dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi. Amir Temur biror mamlakatni tasarrufiga olishdan avval albatta o‘sha joy aholisiga tinchlik yo‘lini taklif etgan, bu yo‘l inkor etilgan holdagina harbiy kuch ishlatgan. Temur hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Yangi sug‘orish kanallar qazilishi va ayrim eskilarining tiklanishi, ekin maydonlarining kengayishiga olib keldi. G‘alla, paxta va boshqa an’anaviy qishloq xo‘jalik ekinlari bilan bir qatorda yangi zig‘ir, poliz ekinlari (masalan, qovunning "Miri Temur" navi), xurmo ekila boshlagan. Temur farmoniga ko‘ra ekinzorlar yaqiniga o‘tov o‘rnatish ko‘shni rahbarlariga taqiqlangan. “Mubohisi sharif bo‘lub, har masala xususida foydali va latif so‘zlar bo‘ldi. Jumladan, fazl va kamol hamda adl va ixson fazilatlari xususida mubohisda hazrat sohibqiron himmatidin ulamo va fuzalog‘a xitob qilib dedikim: «Ulamo har zamonda podshohlarga buyuk nasihatlar qilg‘onlar va xayrli ishlarga targ‘ib qilg‘onlar na nomunosib harakatni man etkonlar. Bu asrda sizlar hech irshod qilmaydursizlar. Va ne qilmoq, va ne qilmamoq xususida menga hech nimarsa demaysizlar» [6: 279-b].

Shaharlar va shahar atrofi aholisidan na jon solig‘i va na boj olinardi. Birorta ham askarning doimiy turish uchun shaxsiy kishilar uyini egallashga yoki

fuqarolarning molini va boyligini oʻzlashtirib olishga haqqi yoʻq edi. “Barcha ishlarda, – degan edi Amir Temur, – bu ishlar qaysi oʻlka xalqiga taalluqli boʻlmasin, hokimlarning adolat tomonida qattiq turishlariga buyruq berilgan. Qashshoqlikni tugatish maqsadida boshpanalar tashkil qildimki, kambagʻallar ulardan nafaqa olib turardilar”. Bundan tashqari, Temurning soliqlar haqidagi qoidasi juda muhim ahamiyatga egadir. Temur yozadi: “Soliqlar yigʻishda xalqni ogʻir ahvolga solishdan yoki oʻlkani qashshoqlikka tushirib qoʻyishdan ehtiyot boʻlish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambagʻallashishiga olib keladi, xazinaning bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa, oʻz navbatida hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab boʻladi…” [7: №8].

**Foydanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Amir Temur – faxrimiz, gʻururimiz // Ma’naviy yuksalish yoʻlida. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1998.
2. Ahmedov A. Amir Temur darslari. –T: Sharq, 2001.
3. Temur tuzuklari. Gʻafur Gʻulom nashriyoti, Toshkent, 1991-y.
4. V. Cherevanskiy V. Amir Temur, Moskva nashriyoti, 1999, 86-bet.
5. Temur tuzuklari. Gʻafur Gʻulom nashriyoti, Toshkent, 1991-y.
6. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma. –T.: Sharq, 1997.
7. Якубовский А.Ю. Самарканд при Тимуре и Темуридах. -Л., 1933. 3 // Вопросы истории, 1946, -№ 8-9/

# O‘SPIRINLIK DAVRIDA KOMMUNIKATIVLIK VA TASHKILOTCHILIKNI SHAKLI

**Alimirzayev Nodirbek Avazbek o‘g‘li**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti magistri

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada liderlik sifatlaridan kommunikativlik va tashkilotchilik xususiyatlari borasidagi tushunchalar berilgan. O‘spirin yoshdagi shaxslarda kommunnikativlik va tashkilotchilik xususiyatini rivojlanib borish jarayoni haqida tushunchalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kommunikatsiya, muloqot, til, lider, tashkilotchilik.

## ANNOTATION

This article provides insights from leadership qualities on communicative and organizational characteristics. Person has been given concepts about the process of developing communicativity and organizational character in persons of age.

**Keywords:** communication, communication, language, leader, organization

Hozirgi zamonamiz borgan sari adolatli, xalq dardini his etaoladigan, tashabuskor va tashkilotchilik xususiyatiga ega rahbarlarga bo‘lgan ehtiyojmiz oldingidan ham ko‘roq zarurligi hammamizga ma’lum.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblarida: “ Men bu haqda o‘tgan yili Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomada ham alohida to‘xtalib o‘tgan edim. Nafaqat hokimlar, balki barcha bo‘g‘indagi aksariyat katta-

kichik rahbarlarda bilim va tajriba, tashkilotchilik salohiyati, el-yurt ishi uchun fidoyilik tuyg'usining yetishmasligi meni qiynaydigan eng murakkab masaladir".[1]

Bu javoblarda kommunikativlik va tashkilotchilik sifatlari har bir rahbar uchun juda muhim ekanligini bilishimiz va o'sib kelayotga yosh avlodda ushbu sifatlarni o'rganish va shakillantirish muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan biz oldimizga qanday maqsad qo'ymaylik u avvalo, kommunikativlik va tashkilotchilik sifatlariga borib taqalaveradi. Va albatta , bugun Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan ushbu sifatlarga ega yoshlarni ertangi kunning rahbari desak adashmagan bo'lamiz. Shunday ekan o'sprinlik davrida kommunikativlik, tashkilotchilik sifatlarini namoyon bo'lishini o'rgnish va shakillantirish muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Kommunikatsiya – tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtsida axborot almashinuvini anglatadi.[2] Muloqot esa faqat insonlar o'rtasida axborat almashunuvi tushuniladi. Kommunikatsiyaning o'zaro birgalikda harakat qilish va faoliyat ko'rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa avvalo kommunikatsiya vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til kommunikatsiyaga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini ta'minlaydi. Til so'z belgilar tizimi bo'lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo'lib yuzaga keladi.

Shuningdek amerikalik siyosatshunos G.Lassuel besh unsurdan iborat bo'lgan kommunikativ jarayonning modelini taklif etadi.

- Kim (axborot kim tomonidan uzatilmoqda)
- Nima (qanday axborot uzatilmoqda)
- Qanday (axborot qanday yo'l bilan uzatilmoqda)
- Kimga (axborot kimga yo'naltirilmoqda)
- Qanchalik samarali (axborot qanchalik samarador uzatildi).

Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birlarini tushunishlari juda muhimdir. Bunda nutqning quyidagi muhim xususiyatlari

---

[1] https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda

[2] Xaydarov F. I, Xalilova N. I. Umumiy psixologiya. –T. 2017. -320 b.

paydo bo'ladi, ya'ni mazmundorlik, tushunarlilik, ifodalilik, ta'sirchanlik ko'rsatiladi.

Buyuk fransuz yozuvchisi Antuo Sent Ekzyuperi "muloqot – shunday ne'matki, u orgali inson lazzatlanadi" deb yozgan edi[3]. Bunda ko'rinadiki muloqot insonlar uchun qaytdaraja muhim ekanlini his etish mumkin. Albatta muloqot barcha yosh davirlaridagi insonlar doim ehtiyoj sezadi. Shunday qilib, shaxsning kommunikativ xususiyatlari rivoji alohida bo'limlar shakllanishi yuz beradigan bir qancha tadrijiy bosqichlardan o'tadi. Shaxsning kommunikativ xususiyatlari ontogenetik rivojlanish mahsuli hisoblanadi. Ular tug'ma bo'lishi mumkin emas va ular har doim shaxsning rivojlanishi va tarbiyalanishi jarayonida shakllanib boradi.

Tashkilotchilik faoliyati ma'nosi ko'p ma'noli va ko'p mazmunli. Keng manoda u hosilalarni sezilarli doirasini qamrab oladi: davlat, sinf, partiyalar, ularning boshqaruv organlari va matbuot faoliyatidan to insonning o'zini-o'zi tashkillashtirishigacha. Tor ma'noda bu tushuncha bitta odamning faoliyatiga kiritiladi, bu esa umumguruhiy maqsadga erishish uchun odamlar guruhining birlashuvini ta'minlaydi. Tashkilotchilik faoliyati material ishlab chiqarish, madaniyat, fan va tarbiya soxasini, davlat jamoaviy hayotining hamma sohalarini kesib o'tadi. U bilan (anglab, anglamay) turli yoshdagi va ijtimoiy holatdagi odamlar shug'ullanishadi.

Tashkilotchilik qobiliyati odamning faoliyatini bir turi sifatida "odam-odamlar guruhi", "tashkilotchi-tashkillashuvchilar guruhi" tizimida mavjud bo'ladi. Shunday qilib, tashkilotchilik faoliyati qonuniyati boshqarish fani muammosiga kirib, uning predmetlaridan biri bo'lib hisoblanadi.[4] Ilk o'spirinlarning tashkilotchilik qobiliyatini rivojlanishini N.G. Levi-tov nutq, muloqotga bog'liq deydi. Bundan ko'rinadiki tashkilotchilik bevosita kommunikatsiya jarayoniga bog'liq ekanligini bilishimiz mumkin.

---

[3] Xaydarov F. I, Xalilova N. I. Umumiy psixologiya. –T. 2017. -320 b.

[4] Уманский Л.Е. Психология организаторский деятелности школников. М 1980.25-30 б

Psixolog V.D.Parigin, R.S.Nemovlarning fikricha tashkilotchi-"lider" bo‘lishi kerak deydi. "Lider" kuchli tashabbuskor va tashkilotchidir deyiladi. Olimlar o‘spirin tashkilotchiga qo‘yiladigan bir qator talablarni sanab o‘tadilar. Ular:

- aniq bir maqsad sari intiladigan;

- zaruriy o‘quvchilar shaxsidagi o‘zgarishlarni biladigan;

- do‘stlarining ichki kechinmalari bilan o‘rtoqlasha oladigan;

- ularga doimo "boshqaruvchi" emas, "do‘stona" ko‘z bilan qaray oladigan;

- doimo ularning muammolari va qiziqishlari bilan o‘rtoqlashish kerak deb aytadi.

Biz xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, o‘spirinlik davrida kommunikativlik va tashkilotchilik qobiliyatlari rivojlarnishi borasi, adabiyotlarda bergan ma’lumotlarga asoslanib kommunikatsiya va tashkilotchilik xususiyatlarini alohida izoh berishimiz mumkin. O‘spirinlik yosh davrida kommunikatsiya bu ularning muloqot sohadagi uning ijtimoiy muhiti uchun ahamiyatli bo‘lgan xulq – atvor xususiyatlarning barqaror tavsifidir. Tashkilotchilik qobiliyati odamning faoliyatini bir turi sifatida "odam-odamlar guruhi", "tashkilotchi-tashkillashuvchilar guruhi" tizimida mavjud bo‘ladi. Shunday qilib, tashkilotchilik faoliyati qonuniyati boshqarish fani muammosiga kirib, uning predmetlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Pedagogik va psixologik manbalari o‘rganishdan olgan xulosamiz shuki, kommunikativlik va tashkilotchilik xususiyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Kommunikativlik va tashkilotchilik qobiliyati qanchalik yuqori bo‘lsa shaxsda hukmronlik va liderlik sifatlari shunchalik yuqori bo‘ladi. Albatta har ikki xususiyatni shakillantirish mumkin.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. 488-b.

2. Ivanov P. I., Zufarova M. Z. Umumiy psixologiya. –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2014. 229-256. B.

3. Xaydarov F. I, Xalilova N. I. Umumiy psixologiya. –T. 2017 – 320 b.

4. Уманский Л.Е. Психология организаторский деятелности школников. М 1980.

5. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. –T.: “Turon-Iqbol” 2006. -119 b.

# TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLARI

**Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi**

Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti

E-mail: umidaubaydullayeva@49gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslari, terminologiya sohasidagi muammolar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Terminologiya, termin, tilshunoslik, maxsus so'zlar, ilmiy tadqiqot.

**Abstract:** In this article we will talk about theoretical foundations of terminological research , the problems in the field of terminology.

**Keywords:** terminology, termin, linguistics, special words, scientific research.

Jahon ilm-fanining jadal rivoji tilshunoslikda terminologiyaning alohida mustaqil soha sifatida taraqqiy etishiga turtki bo'ldi. Ma'lumki, terminologiya fanning sohalariga oid tushunchalarni o'rganish, turli kasb-hunar, ixtisosliklarni o'zlashtirishda, ilmiy-texnik taraqqiyotni ifodalashda salmoqli o'rin tutadi. Bu esa mazkur sohadagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Jahon tilshunosligida XVIII-XIX asrlardayoq terminologiya muammolariga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kela boshlagan edi. V.G.Gak, D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, T.A.Yatsyuk, A.S.Pigolkin, N.N.Kaden, X.Felber kabi olimlarning tadqiqotlarida mazkur yo'nalishga oid qarashlar mavjud. G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, O.S.Axmanova, A.M.Scherbak, V.P.Danilenko, A.N.Kononov, E.A.Kolesnikova kabi rus olimlari tadqiqotlarida terminologiyaning nazariy masalalari yoritilgan. O'zbek tilida terminologiya masalalari M.E.Umarxo'jayev, X.Dadaboyev, I.X.Sadiqova, O.Tursunova, S.X.Nurmatova, O.S.Ahmedov, P.P.Nishonov, S.Muhamedova, S.T.Mustafayevalarning tadqiqotlarida aks etgan. Shuningdek,

D.X.Kadirbekova, N.A.Martinova, O.C.Ahmedov, P.P.Nishonov, D.Kamchibekova, X.Paluanovalar sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bilan shug'ullanishgan.

Ta'kidlash kerakki, turkiy tilshunoslikda terminologiya masalalariga bag'ishlangan ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlar orasida tilshunoslik terminlariga bag'ishlangan tadqiqotlar salmoqli o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida fan va texnikaning takomili natijasi o'laroq, sohaviy terminlarni o'rganishga e'tibor kuchaydi. Xususan, so'ngi yillarda yosh tadqiqotchilarning ishlarida ham terminologiyaga murojaat oshganini sezishimiz mumkin. Shunday bo'lsa-da, terminologiiyada hali qo'l urilmagan, yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Xususan, o'zbek tilshunosligida badiiy asar terminlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar barmoq bilan sanarli darajada. Vaholanki, badiiy asar terminlarini lingvistik tadqiq qilish tilshunoslik uchun ham, adabiyotshunoslik uchun ham g'oyat ahamiyatli. Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'ringa ega. O'zbek terminologiyasi bir necha asrlik shakllanish va taraqqiyot tarixiga ega. O'zbek terminologiyasi tarixi adabiyotlarda quyidagicha davrlashtiriladi:

- Qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi;
- eski turkiy til (XI-XIV) terminologiyasi;
- eski o'zbek adabiy tili (XV-XX) terminologiyasi;
- Sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi;
- istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi[5].

Hozirgi o'zbek terminologiyasi leksikasi tarkibida qadimgi turkiy til, eski turkiy til hamda eski o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan leksik birliklar ham o'z ifodasini topgan.

Eski o'zbek adabiy tili terminologiyasining takomillashuvida , uning yanada yuqoriroq bosqichga ko'tarilishida o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy ijodining o'rni beqiyos. Navoiy va uning zamondoshlari, izdoshlarining badiiy, tarixiy, ilmiy asarlari leksik boyligi tahlilidan ko'rinadiki, o'zbek tili ichki imkoniyatlaridan keng foydalangan holda termin yaratish bu davr uchun eng

[5] H.Dadaboyev "O'zbek terminologiyasi", Toshkent, 2019., B-11.

sermahsul usul hisoblangan. Shuningdek, bu davr terminologiyasi o‘zlashmalar hisobiga ham shakllandi va rivojlandi. Navoiy asarlarining tili va uslubi ko‘p jihatdan tadqiq qilingan. Biroq, Navoiy asarlarida terminlarning aks etishi masalasi Navoiyshunoslik ham terminologiya oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Alisher Navoiy asarlari matnida o‘z davrining turli ilm-fan, kasb-hunarga oid terminlarini qo‘llagan. Ularning ba’zilari bugungi tilimizda ham saqlangan bo‘lsa, ayrimlari butunlay iste’moldan chiqib, eskirgan so‘zga aylangan. Navoiy asarlari mazmunini, asl mohiyatini anglashda qiyinchiliklarning borligi ma’lum. Bu esa o‘sha davr tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi farqlanishlar bilan bevosita bog‘liq. Navoiy asarlarida terminlarning qo‘llanishi, ularning xususiyatlari o‘rganilsa, terminologiya tarixi uchun ham, rivoji uchun ham, ayni paytda iste’molda bo‘lgan terminlarning paydo bo‘lish xususiyatlarini tadqiq qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda terminologiyaga doir bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda hali yechimini kutayotgan masalalar ham talaygina. Fanda termin va terminologiya tushunchalarini ifodalashda olimlarimiz o‘rtasida oxirgi to‘xtamga kelinmaganligi, atamalarni qo‘llashda izchillik yo‘qligi, badiiy asar terminologiyasi to‘liq o‘rganilmaganligi kabi masalalar shular jumlasidandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi.-Toshkent, 2019.
Shunday qilib, kino san’ati og‘zaki va xayoliy fikrlashga tayanadi, bu esa media matnni yaratishga yordam beradi. Talabalar uchun odatiy hol bo‘lgan maktab va oliy o‘quv yurtlaridagi an’anaviy ta’lim doirasida media-ta’lim kontekstida asosan mantiqiy-nutq tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik media-matnni obrazli idrok etish madaniyatini egallash tufayli kengayib bormoqda. Kino san’atining eng yaxshi namunalariga murojaat qilish o‘qituvchiga, keyin esa talabalarga faktologik, illyustrativ idrok etishni rivojlantirishdan, dastlabki tayyorgarlik asosida o‘quv materialini o‘zlashtirishda ayniqsa muhim bo‘lgan o‘z tomoshabinlik madaniyatini, mustaqilligini va faolligini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, medianing rivojlanishi ushbu imkoniyatlarni sezilarli darajada kengaytirganini va shu bilan birga o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida media-madaniy texnologiyalar va vositalarni tanlashda mas’uliyatini oshirib material tanlashni murakkablashtirganini ta’kidlaymiz.

Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy oliy maktabning texnik jihozlanishi albatta kompyuter sinfini (kompyuter markazini) o‘z ichiga oladi, lekin shu bilan birga dasturiy ta’minot va multimedia dasturlari va boshqa ko‘rgazmali o‘quv qurollarining

yetishmasligi muammosi mavjud bo‘lib, bu o‘quv jarayonining sifatiga va talabalarning kognitiv faoliyati xususiyatiga sezilarli darajada ta’sir qiladi.

Shu bilan birga, o‘qitish samaradorligi quyidagi sabablarga ko‘ra oshadi: taqdim etiladigan vositalarni talabalarning mustaqil ishi bilan uyg‘unlashtirish, materialni obrazli ifodalash, o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, taqdim etiladigan materialning va uning ko‘rinishining talabalarning imkoniyatlariga mos keladigan asosiy tushunchasini to‘g‘ri aniqlash. Bundan tashqari, o‘quv media-mahsulotini loyihalashda ishtirok etish jarayonida talabalar media kompetentlikni shakllantirishga yordam beradigan zarur ko‘nikmalar, malakalarni egallaydilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Пахрутдинов Ш.И. Глобаллашув ва ахборот алмашинуви жадаллашган шароитда медиатаълимнинг аҳамияти. . – Т.: "Халқ таълими" илмий-методик журнали, 2017. 2-сон. – 116 б.

2. Рашидов Ҳ.Ф. Махмудов С.Ю. Глобаллашув шароитида ёшларни медиасаводхонлигини ошириш. Руспублика илмий-амалий семинари материаллари. – Наманган, 2015. – Б. 35-38.

# O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA HAL QILISH USULLARI

**Zaylovidinov Jaloliddin**
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari haqida tushunchalar berib o'tilgan.Ziddiyatli vaziyatlarni to'g'ri baholash va uni bartaraf etish yuzasidan ma'lumotlar taqdim etilgan.O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi nizolarni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** konflikt,o'qituvchi,nizolar sababi,konfliktli vaziyat,ijtimoiy nizolar, o'quvchi,muzokaralar jarayoni.

**Abstract:** This article provides insights into the causes of conflict between teacher and student. Information is provided on how to properly assess and resolve conflicts. Recommendations were given to prevent conflicts in the teacher-student relationship.

**Key words:** conflict,teacher,cause of conflict,conflict situation,social conflicts, student,the negotiation process.

Konfliktlar (lot. contractus - to'qnashuvdan) - juda keng tarqalgan hodisa. Ular insonga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi va maktabdagi nizolar muammosi bundan mustasno emas.Muayyan turdagi sabablar ta'lim muassasalarida ma'muriyat va o'qituvchi,o'qituvchi va o'qituvchi,o'qituvchi va o'quvchi,ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Har qanday o'rta

maktab o'quvchisi boshqa odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnatish va saqlash uchun yetarli hayotiy tajribaga ega.[6]

So'nggi yillarda o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar ancha murakkablashib va keskinlashib bormoqda. Ko'plab olimlarning ta'kidlashicha, turli holatlar va omillar nizolarni keltirib chiqarishi mumkin: odamlarning ruhiy holati va munosabatlari, ularning munosabatlardagi pozitsiyalari, alohida individual va shaxsiy xususiyatlar. Har qanday konflikt maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar, fikrlar, qarashlar, e'tiqodlar, shaxsiy fazilatlar, shaxslararo munosabatlar, bilim, ko'nikma, qobiliyat, boshqaruv funktsiyalaridagi qarama-qarshiliklar asosida yuzaga keladi.Bunday sabablar o'qituvchining harakatlari va muloqoti,o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va maktabdagi umumiy vaziyatga bog'liq bo'lishi mumkin.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni buzadigan sabablar o'ziga xos xususiyatlarga ega va juda xilma-xildir. Ushbu turdagi nizolarni paydo bo'lishi tashkiliy-boshqaruv,ijtimoiy-psixologik va shaxsiy sabablarga bog'liqdir.[7]

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning tashkiliy va boshqaruv sabablari ham bir nechta guruhlarga bo'linadi. Bular quyidagilar: 1.Konfliktlarning funksional-tashkiliy sabablari: pedagogik jamoada konfliktli muloqot; o'quv moddiy bazasining yetarli darajada ta'minlanmaganligi (o'quv anjomlari,darsliklar,o'quv xonalarining jihozlanishidagi kamchiliklar va boshqalar). 2.Konfliktning shaxsiy-funksional sabablari: o'qituvchining (yosh o'qituvchi) pedagogik tajribasizligi; o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida qo'yiladigan axloqiy fazilatlarga qo'yiladigan talabning nomuvofiqligi; pedagogik vazifalarni qo'yish va hal qilishdagi qiyinchiliklar; o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan o'qitish

---

[6] Nemov R.S., Kirpichnik A.G. Jamoaga yo'l / talabalar jamoasi psixologiyasi haqida o'qituvchilar uchun kitob. - M .: Pedagogika, 1988 yil.

[7] Antsupov A.Ya., Shipilov A.I. Konfliktologiya. - Sankt-Peterburg: Pyotr, 2008 yil.

usuli o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos kelmasligi; o‘rta maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini yetarlicha baholamaslik (shaxsini hurmat qilmaslik,adolatsizlik,o‘quvchi bilan munosabatlarning rasmiyatchiligi). 3.Konflikning situation-boshqaruv sabablari: o‘qituvchining o‘quvchilarning darsdagi xatti-harakatlarini oldindan bilish qobiliyatining pastligi; o‘qituvchi ko‘pincha mavzuni o‘zlashtirishda ortiqcha talablar qo‘yadi, intizomni buzganlarni jazolash vositasi sifatida baholarni qo‘llash; o‘quvchilar harakatini tahlil qilishda xato va asossiz xulosalar; vaziyatlarning guvohlari boshqa o‘quvchilardir, shuning uchun o‘qituvchi har qanday vosita bilan o‘zining ijtimoiy mavqeini saqlab qolishga intiladi va shu tariqa ko‘pincha vaziyatni ziddiyatga olib keladi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarning ijtimoiy-psixologik sabablari: shaxslararo muloqot jarayonida ma’lumotlarning yo‘qolishi va buzilishi ("o‘qituvchi-shogird" tizimidagi salbiy muloqot tajribasi natijasida, fobiyalar, vaqt etishmasligi, o‘quvchining cheklangan so‘z boyligi, bir-birini noto‘g‘ri tushunish); pedagogik jarayon ishtirokchilarining roli assimetriyasi, o‘quvchiga faqat ma’lumotni idrok etishga tayyor bo‘lgan passiv ishtirokchi roli berilganligi; murakkab masalalarni yechishda o‘qituvchi va o‘quvchining turlicha pozitsiyalari, qarashlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik; o‘qituvchi va o‘quvchining psixologik mos kelmasligi (hayotiy qadriyatlari va ideallari, motivlari, temperamentlari va xarakterlarning muvaffaqiyatsiz kombinatsiyasi); o‘qituvchi va alohida o‘quvchilarga ("sevimlilar" va "nostandart") qilinadigan munosabat sababli; o‘qituvchi, qoida tariqasida, o‘quvchining alohida harakatiga emas, balki uning shaxsiyatiga baho berishi. Bunday baholash ko‘pincha boshqa o‘qituvchilar va tengdoshlarning o‘quvchiga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarning shaxsiy sabablari: muloqotda ishtirokchilarning kutilgan xatti-harakatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik (xudbinlik, yetakchilikka moyillik, o‘ziga qaratilgan hazillarga yo‘l qo‘ymaslik natijasida nomaqbul xatti-harakatlar yuzaga kelishi); o‘qituvchining ijtimoiy-psixologik va konfliktni oldini olish qobiliyatini pastligi; ijtimoiy o‘zaro ta’sirning stressli omillarining psixikaga salbiy ta’siriga past psixologik qarshilik

(imtihonlarga tayyorgarlik, nazorat va yozma ishlar, o‘quv faoliyatini tekshirishning turli usullari); o‘zaro hamdardlikning yo‘qligi; muloqot ishtirokchilarining da’volarining haddan tashqari oshirilgan yoki kam baholanganlik darajasi ("o‘quvchi tomonidan o‘qituvchi tomonidan belgilanganidan yuqori ballni himoya qilish" yoki bahoni kam baholaganlik fakti bilan so‘zsiz kelishuv, o‘quvchining taxmin qilingan natijalari o‘rtasidagi nomuvofiqlik); temperamentning xolerik tipidagi (beqaror va harakatchan nerv sistemasi) ustoz va shogird munosabatlari.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolarni hal qilishda pedagogik va ma’muriy usullardan ham foydalaniladi.

Nizoli vaziyatni hal qilishning pedagogik usuli:

1) Suhbat;

2) Iltimos;

3) Ishontirish;

4) Nizoga kirishuvchilarga qo‘yilgan talablar yoki ishtirokchilarning xatti-harakatlari noto‘g‘riligini tushuntirish va boshqalar.

Nizoli vaziyatni hal qilishning ma’muriy usuli:

1) Nizoga kirishuvchilar manfaatlarini kuch bilan bostirish;

2) Ularni boshqa ishga o‘tkazish;

3) Nizo qatnashchilarini turli ko‘rinishlarda o‘zaro ajratish;

4) Axloq komissiyasining qarori;

5) Rahbar buyrug‘i;

6) Sud qarori;

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ziddiyatli vaziyat yuzaga kelmasligi uchun o‘qituvchiga qisqacha tavsiyalar.

1. O‘quvchilarni ishonchini qozonishga harakat qiling,so‘zingiz bilan ishingiz bir-biriga mos kelsin.

2. O‘quvchilar fikrini hurmat qiling,ko‘p hollarda ularni kayfiyatin ko‘tarinki ruhda saqlashga intiling.

3. Muloyim bo‘ling,o‘quvchilarga tez-tez qilgan yaxshi ishlari uchun rahmat aytib turing.

4. Barcha narsani jamoa bo‘lib muhokama qiling,biroq individual topshiriqlar bering va individual suhbatlashing.

5. Ko‘p hollarda o‘zingizni o‘quvchilar o‘rniga qo‘yib ko‘ring va ularni tushunishga harakat qiling.

6. O‘quvchilar qo‘pol gaplarni yoqtirishmaydi,buyruqlarni yomon ko‘rishadi,shuning uchun buyruq berishni kamaytiring.

7. O‘quvchilar haqida barcha narsani biling,u bilan shaxsiy aloqalarni o‘rnating biroq qalblariga chuqur kirmang.

8. Zerikarli bo‘lmang,orginal va pozitiv bo‘ling.

9. O‘z o‘quvchilarizga mehr bilan munosabatda bo‘ling,xato va kamchiliklarini hammani oldida aytmang va uni kamsitmang.

10. O‘quvchining psixikasi bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘ling.

Xulosa

Ziddiyatlar bizning hayotimizda juda keng tarqalgan. Ular turli xil munosabatlar tizimlarida uchraydi: "Ustoz-shogird", "Talaba-talaba" va boshqalar. Ushbu nizoli munosabatlarning noaniq yechimi tobora ko‘proq ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Chet el olimlari tomonidan ushbu muammoning turli jihatlarini o‘rganishda muhim tajriba to‘plangan. Biroq, yosh avlodni nizolarni hal qilish usullariga o‘rgatish muammosi zamonaviy pedagogika uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari tizimida maktab kollektivida paydo bo‘layotgan nizolarni tasnifidan foydalanish bo‘yicha xulosalar va tavsiyalarning ishonchliligi tadqiqotning maqsadi va vazifalarini uslubiy va nazariy jihatdan asoslash bilan ta’minlanadi. Ushbu tadqiqotda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari va hal qilish usullari haqida fikr va xulosalarga ega bo‘ldik.Shuni xulosa qilib aytish mumkinki ta’lim jarayoni sifatli bo‘lishi uchun nizoli jarayonlarni oldini olish kerak va o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlari yaxshi bo‘lishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Nemov R.S., Kirpichnik A.G. Jamoaga yo‘l / talabalar jamoasi psixologiyasi haqida o‘qituvchilar uchun kitob. - M .: Pedagogika, 1988 yil.

2. Antsupov A.Ya., Shipilov A.I. Konfliktologiya. - Sankt-Peterburg: Pyotr, 2008 yil.

3. Do‘stmuhammedova. Sh.A. O‘quvchilar o‘quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi. T.: 2000.\

# УСМОН АЗИМ ШЕЪРИЯТИДА ҚАЛБ ҲАРОРАТИ

**Исманжонова Мафтуна Турсунпўлат қизи**

НамДу адабиётшунослик (ўзбек адабиёти) 1-курс магистранти

# THE WARMTH OF THE HEART IN THE POETRY OF USMON AZIM

**Abstract**: In this article are researched the most used symbols in Usmon Azim poerty? As like ko'ngil (heart, soul) and sematically intimate words – yurak and qalb.

**Keywords:** yurak (heart), ko'ngil (soul), qalb (heart, soul), ishq (love)

Усмон Азим лирик қаҳрамонинг қалби бир умр парвоз иштиёқида яшайди. У уйқутоб нигоҳлардан, залил орзулардан, ожиз муҳаббатдан, мумтоз таъзимдан чарчаган. Шоир "Биринчи баллада" асарида халқ ижодининг нодир намунаси "Уч оға-ини ботирлар" эртаги қахрамонларини замона шамоилига мослаган ҳолда ўтли сатрлар билан беради. Кенжа ботирнинг кетиш истаги билан бошланган балладада шоир кетиш истагини "Жодугар уфқлар тортар ақлимни" сатрида изоҳлаб беради.

Тўнғич ботир:

Чиранма, укажон, яшайвергин жим,

Кун кўргин қадрлаб сокин бахтингни.

Ўртанча ботир:

Дарахтга қарагил, бир жойда ўсар…

Кенжа ботир:

Йўқ, у ўсаяпти осмонга тикка!

Ботирларнинг ёшлари ва уларнинг фикирларига назар солсак балладада айтилмоқчи бўлган гап гўё бутун миллатга, оломонга қараб айтилаётгандек туюлади. Шу билан бирга инсон ботинининг, "мен"инининг залолати аксланади.

Нақадар димиққан сиз турган макон.

Унинг кучоғида йўқолар беиз,

Оқмасдан бир жойда бижиган замон.

Қўйинг тубанларни!

Юксакка чиқинг!

Югуринг – сиз билан юксалсин ҳаёт!

Юксакликни тутиб турган кенжа ботирнинг тубанга қулаш ситуатсияси мустабид тузум воқеаларни ёдга солади. Иккита калҳатнинг икки кўзини чўқиши, акаларининг бепарво жавоблари ўқирман қалбини ўртайди. Юксакни тутиб, қўллари банд бўлган укаларидан фарқли, бирини қўли кўксида, бирини қўли тахтчанинг оёғини ушлаб турибди. *“Ахир мен турибман мумтоз таъзимда, Қара, кўксимда- ку иккита қўлим”.*

Сатрларни ўқиб уйга толасан киши, жисм эмас, руҳ тубанга қуласа нима бўлади? Атроф, табиат, тафаккуримизда қандай аксланади? Тириклик моҳияти нималарда моддиялашиб боради? Нигоҳларимизда бефарқлик парда тортадими? Шоир чақириғида “Югуринг – сиз билан юксалсин ҳаёт!” дейилмоқда, бироқ тубанга чўккан руҳда югуриш иштиёқи бўлармикин?! Оламоннинг юксакликка интилмоғи, у ерда макон топмоғи учун бир уйғоқ юрак етарлими? Йўқ! Шоир ботирлар мисолида, балки, даставвал руҳи юксалган, вужуди уйғоқлар сафини кенгайтирмоқ лозимлигини уқтурмоқчидир. Шунда тутиб турган қўллар толмайди, қалхатлар узоқ соя солиб туролмайди.

“Кўчадан репортаж” шеърида Усмон Азим жамиятнинг турли қатлам вакилларига ранг беради. Рўзғоридан бошқа дунёни билмайдиган одам, душман билан қувонгани учун дўст олдида боши ҳам бошқа бир инсон. Ёки замондошларнинг зид турмуш тарзи тасвирини олайлик. Бевафо эрини севувчи ранги сариқ аёл ва унинг ёнгинасида лорсиллаб турган эрини ҳам, ўйнашини ҳам севувчи аёл. Кўзлари ўйноқи, ҳирси ўтли успирин қиз ва унга тенгдош қўллари пахта даласида қаварган қизча. Ҳар бир зидланишда муҳит оқимидагиларнинг ҳамжинс ва замодош бўлса-да ҳавасларида фарқлар мавжудлиги тасдиғини топади. Зотан, ҳар ким оқимга ўз услубида шўнғийди.

Улкан одам -

Шўрлик одам

Кичрая бошлада.

Аввалига узун бўйни

Чўкди елкалар аро,

Ёқаларин орасига

Боши кирди мунғайиб,

Қўлларин енги ютди

(Ботқоқлик тортдими ё?)

Улкаг одам -

Шундай одам

Лахзада бўлди ғойиб…

Тирик кетган ҳар кишига

Шоир очади аза.

Ҳар бекатда биров ғойиб -

Қанотлари қайрилди…

“Улкан одам” шеърида шоир юуксалишга тўсиқ бўлувчи омилларни ғоёт аниқлик билан тавсифлаб берган. Улкан одамдаги кучли чарчоқ, мудроқ, одамларнинг унга тикилган таъмали нигоҳлари ва унинг бу нигоҳлардан кичрайган қадди – барчаси инсонни кесилган қанотларининг қисқача баёнидир. Азалнинг мутлақ тартиботлари билан эмас, муҳит стихиясига берилиб, “умр” кечирган ҳар қандай улкан одамни жамият лаҳзада ғойиб қилади. Ҳар бекатда янги йўловчи ва ҳар бекатда янги қурбон манзилга боради бу умр автобусида. Омон қолмоқ учун эса шоир айтганидек, кўзни юмиб олиш керак. *“Фақат энди кўзларимни юмиб олдим (ҳеч очмай!)”*. Нигоҳларимизни муҳит гирдобидан сақлашимиз керак, таъқибли нигоҳларни четлаб ўтмоқ керак, ана шундагина қанотлар қайрилмайди, енг ичида вужудимиз ғойиб бўлмайди. Инсон бу билан ўзлигига, келажагига қаратилган курашда ғалаба қозонади.

О, учмоқлик қандай ҳавасдир!

Умид қуши толди интилиб,

Ахир, осмон жуда ҳам пастдир –

Юраккача келган бостириб.

Инсондаги тафаккур қанотлари осмондан ҳам юқорироққа юксалиш ҳавасида. Лирирк қахрамоннинг умид қуши эса сўнган. Унга ботирлар қанотдош бўдмади, муҳитга сингиб кета олмади ва умрнинг қайсидир бекати уни ғойиб қилди. Энди у салқиган ўйлари, армога эврилган орзулари билан борлиққа беун боқади.

Ёшсиз йиғлаб боқар оламга

Юрагидан енгилган одам.

Сўзимизни мухтасар қилсак, Усмон Азим муҳаббат олови ёниқ бўлган инсон, лаҳзалик туйғуларга умрбоийлик баҳш эта оладиган ижодкор. Ўқирман уни асарларидангина топиши мумкин. У асарлари қатига ўзини жойлаб кетади ва шу сабаб ҳам унинг шеърлари инсонинг қалбининг энг махфий бўлмаларига-да кириб боради. Усмон Азим лирикаси самимиятдан бино бўлган асарлардир. Унинг вужуди муҳит юкларидан енгиллашни истайди, қалби эса эзгуликдан умидвор. Сўзлари ҳам шоир каби парвоз талабида эркинликни тартиб қилгани ҳолда, эркин сатрлар шоирнинг эркинликка бўлган талабини ифодаси ўларoқ кўзга ташланади. Унинг парвози юксак, манзил муқаррар.  Шу жихатдан ҳам, Усмон Азим ўзбек шеъриятида чинакам парвоз қилган ижодкордир.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Азим, Усмон. Узун тун: (шеърлар). – Т.: Ёзувчи, 1994. -32 бет
2. Азим, Усмон. Сайланма. – Т.: Шарқ. 1995.252-бет
3. Азим, Усмон. Юрак. – Т.: Ғофур Ғулом. 2009.

Ўзбек адабий танқиди: (анталогия) / тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов; тахрир хайъати У.Норматов (ва бошқ). – Т.: ТУРОН – ИҚБОЛ, 2011, - 544 бет

# TA’LIM JARAYONIDA O‘SMIRLAR DIQQATINING RIVOJLANISH XUSUSSIYATLARI

**Karimov Sardorbek Anvarjon o‘g‘li**
O‘zMu Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha ) yo‘nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada diqqatning muhim jarayon bo‘lib, inson psixologik jarayonlarining barcha faoliyatlarida ishtirok etishi haqida ma’lumot berilgan. Eng sodda faoliyatdan tortib eng murakkab faoliyatni ham diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoya kattadir.

**Kalit so‘zlar:** diqqat, ta’lim jarayoni, individ, hissiy, aqliy, faoliyat, meditatsiya, stress.

Bugungi kunga kelib ilm-fan rivojiga bo‘lgan e’tibor kuchaytirilmoqda. Kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodning kuchli bilimga ega bo‘lishi, o‘z sohosaning yetuk mutahassisi bo‘lishi kerakligi hozirgi zamoning talabi, albatta.

Mamlakatimizda ham yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar haqida shunday fikr bildirgan edilar: «Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarnig avlodlarimiz, degan davat ularning qalbida doimo aks-sado berib,

o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan» deya ta’kidlagan edilar[8].

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. Bu borada prezidentimiz tomonidan taxsinga sazovor ishlar amalga oshirilmokda. Yurtimizda chet-el bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan ko‘plab oliy ta’lim muassasalari, maktab va litseylar, Prizident maktablari shular jumlasidandir. Yoshlarimizning kitobxonlikga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirish maqsadida tashkil etilgan tanlovlar ham bunga misol bo‘la oladi.

Lekin zamonamiz rivojlanib o‘quvchi yoshlarning bilim olishlari uchun ko‘plab qulayliklar yaratilayotgan bo‘lsada maktab o‘quvchilarining barchasi berilayotgan bilimlarni to‘liq o‘zlashtiryapti deb ayta olmaymiz. Ming afsuski hozirgi kunda aksariyat o‘quvchilarda diqqatini jamlay olmaslik muamosi mavjud.

Bunga sabab esa turlicha bo‘lishi mumkin. Telefon qurilmalaridan noto‘g‘ri foydalanish, sog‘ligidagi muamolar, oilasidagi muamoli vaziyatlar, tengdoshlari bilan yuzaga kelgan nizoli vaziyatlar. Ushbu holatlar o‘smirlik yoshida yuzaga kelishi mumkin . Chunki bu yoshda organizmda garmonal o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi. O‘ziga bo‘lgan e’tibor, o‘z-o‘zini anglash jarayonini o‘smir boshdan kechiradi. O‘ziga ko‘proq e’tibor tortishni, do‘stlari va tengdoshlari orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lishni hohlaydi[9].

Ta’lim jarayonida o‘tilayotgan fan mavzularini yaxshi tushunmaydi, natijada o‘zlashtirishida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Mavzularni yaxshi o‘zlashtira olmasligiga asosiy sabab esa o‘quvchi diqqatini darsga qarata olmayotganligida. Ya’ni dars vaqtida o‘quvchining xayoli boshqa narsalarda bo‘ladi. Agarda o‘quvchi uchun dars mashg‘uloti qiziqarli bo‘lmasa ham diqqatini jamlay olmasligi mumkin. Bu esa o‘quvchilardagi diqqat konsentratsiyasi muamosi borligini anglatadi. Maktab

---

[8] *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-Sessiyasida So‘zlagan Nutqidan.*

[9] Y.Jumanazarov «Rivojlanish psixologiyasi» ma’ruzalar matni Namangan 2018 y.

o‘quvchilari diqqati hisobga olinib dars mashg‘ulotlari 40-45-daqiqa tashkil qilinishi va tanafuslar berilishi ham o‘quvchilarga bilim olishida qulaylik yaratish uchun tashkil etilgan.

Men ish faoliyatim davomida o‘smirlardagi diqqat konsentratsiyasini o‘rganish uchun “Shulte” diqqat konsentratsiyasini aniqlash testini o‘tkazdim. Olingan natijaga ko‘ra o‘quvchilarning aksariyatidagi diqqat konsentratsiyasi normal holatda emas. O‘smirlar diqqatini rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib borilmas ekan ta’lim jarayonida yuksak natijaga erishish sekinlashib boraveradi[10].

Diqqat tushunchasiga olimlar tomonidan bir qator ta’riflar keltirilganligini ta’idlash mumkin. P.I.Ivanov tomonidan diqqat deb - ongni bir nuqtaga to‘plab muayyan bir ob’ektga aktiv qaratilishga aytiladi[11].

F.N.Dobrinin, N.V.Kuzmina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, N.F.Gonobolin va boshqalarning fikricha, diqqatning vujudga kelishi ongning bir nuqtaga to‘planishi ong doirasining torayishini bildiradi, go‘yoki ong doirasi bir muncha tig‘izlanadi. E.B.Pirogovaning tomonidan ta’kidlashicha, diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqazo etadigan tarzda ongning yo‘naltirilganligi va biror narsaga qaratilganligidir. Diqqat shunday muhim jarayondirki, u odamning barcha faoliyatlarida albatta ishtirok qiladi. Eng sodda faoliyatdan tortib eng murakkab faoliyatni ham diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoya kattadir.

Diqqat psixologik noyob hodisa bo‘lib, hozirgacha ruhshunoslar u haqda yagona fikrga ega emaslar. ba’zi bir mualliflarning fikriga ko‘ra, diqqat istalgan psixik jarayonda u yoki bu darajada ishtirok etganligi sababli, mustaqil hodisa sifatida o‘rganilishi mumkin emas. boshqalar esa diqqatning psixik jarayon sifatida mustaqilligini yoqlaydilar.

---

[10] P.I.Ivanov, M.E.Zufarova «Umumiy psixologiya». O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008 yil., 89 – bet.

[11] P.I.Ivanov, M.E.Zufarova «Umumiy psixologiya». O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008 yil., 61 – bet.

Bundan tashqari, diqqatning psixik hodisalarning qaysi sinfiga tegishliligi haqida ham turli fikrlar mavjud. ba'zilarning ta'kidlashiga ko'ra, diqqat – bu psixik bilish jarayoni. boshqalar diqqat har bir faoliyatning zarur sharti ekanligiga, diqqatning o'zi esa ma'lum iroda kuchlarining ifodalanishini talab etishiga asoslangan holda, diqqatni iroda va insonning faoliyati bilan bog'laydilar. Hozirda diqqat barqarorligining ahamiyatli muhim sharti bo'lib, u jamlangan jismning yangi tomonlari va aloqalarini ochib berish imkoniyati xizmat qilishi isbotlandi.

Diqqat barqarorligini o'lchash uchun alohida harflarning tartibsiz ketma-ketligidan iborat "Burdon" jadvalidan foydalaniladi, bunda qaytariladigan harflar soni har bir satrda bir xilda bo'ladi. Diqqatni jamlash ostida diqqatning jismda jamlanganlik jadalligi yoki darajasi tushuniladi.

A.A. Uxtomskiyning fikriga ko'ra, diqqatni jamlash bosh miya po'stlog'idagi kuchli qo'zg'alish o'chog'i faoliyatining xususiyati bilan bog'liq.

Bugungi kunda atrofimizdagi dunyo imkon qadar bizni ko'proq chalg'itishga urinayotgandek. Google va Facebook kabi kompaniyalar bizning ongimizdagi zaif nuqtalarni topib, xatti-harakatlarimizga ta'sir ko'rsatishda ulardan foydalanadi. Zero biz kirib o'qiyotgan har bir yangi xabar, har bir xat, har bir sayt ularning mahsulotidan foydalanish vaqtini oshiradi.

Diqqat-e'tiborimizni o'zimizga qaytaradigan vaqt keldi. Quyida diqqat-e'tiborni bekorga sarflamay, o'zimiz uchun haqiqatda muhim bo'lgan narsalarga qaratishga o'rganishning uch usuli havola etiladi.

1. Ongli meditatsiya. Zamonaviy psixoterapiyada meditatsiya boshqa narsalarga chalg'imay, kerakli vaqtda, biz uchun muhim bo'lgan voqea-hodisalarga diqqatni jamlash uchun yordam berish maqsadida qo'llaniladi.

Uning mohiyati ko'zlarni yumgan holatda tana va ongda nimalar ro'y berayotganini jimgina kuzatishdan iborat.

Meditatsiya stressni pasaytiradi, dam olish va barcha chalg'ituvchi omillardan uzoqlashishga yordam beradi. Hammasi oddiy: siz o'tirib, diqqatingizni bir narsaga qaratasiz, ko'pincha nafas olishga. Albatta, siz chalg'iysiz va nimalar haqidadir

o‘ylab, "bulutlar uzra sayr qilasiz". Meditatsiya mohiyati har qanday fikrlash faoliyatidan qutulishda emas. Shunchaki uni ayni damda kuzatish kerak.

Agar meditatsiya qilishning uddasidan chiqa olmayotgan bo‘lsangiz, sport bilan shug‘ullanayotganingizda yoki qandaydir ish bilan mashg‘ul paytingizda birgina narsaga yoki rag‘batga diqqatni jamlashga harakat qilib ko‘ring. Shu tariqa miyangizni diqqatni nazorat qilishga o‘rgatasiz.

2. Bir vazifalilik. Ko‘p vazifalilik biz o‘ylagandek samarali emas, ayniqsa, gap aqliy faoliyat haqida ketganda. Shu bilan birga, u miyaga ziyon. Har safar bir necha ishni baravar bajarganingizda miya ortiqcha stressga yo‘liqadi va tabiiyki, yangi vazifaga diqqatni qaratish xususiyati pasayadi.

Uzoq vaqt davomida bir ishni bajarganingizda bunday asoratlar bo‘lmaydi. Bir vazifalilik yanada samarali ishlashga yordam beradi va diqqatni bir predmetda jamlashga o‘rgatadi. U o‘z ta’siriga ko‘ra, meditatsiyaga o‘xshaydi: qancha ko‘p mashq qilsangiz, shuncha yaxshi uddalaysiz, kerakli narsaga diqqatni yo‘naltirish shunchalik osonlashadi.

3. Muntazam ravishda chetlashish. Har safar ijtimoiy tarmoqlarga kirish uchun telefonni qo‘lga olganingizda yoki 10 daqiqalik tanaffus bir soatga cho‘zilib ketganida miyangiz har safar navbatdagi takrorlash bilan mustahkamlanuvchi odat to‘qimalarini shakllantiradi.

Aynan shuning uchun raqamli qurilmalardan foydalanishni cheklash shunday muhim. Muntazam ravishda bunday chalg‘ituvchi omillardan chetlashishga harakat qiling. Masalan, kunning muayyan bir qismidagina pochta va xabarlarni tekshirishga odatlaning, haftada bir yoki ikki marta, ba’zan esa umuman smartfon va noutbukka qo‘l urmang. Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qilsa, o‘smirlik davrida bola o‘z diqqatini o‘zi boshqara oladi. Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat hollarda o‘quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi.

O‘smir o‘z diqqatini to‘la ravishda o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo‘lgan faoliyatlarga qarata oladi. O‘smirning diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo‘lishi mumkin.

Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o‘qituvchi tomonidan doimo qo‘llab-quvvatlanishi juda zarurdir[12].

Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko‘tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. Shuningdek, o‘smirning dars jarayonida o‘z tengdoshlari orasida o‘zini ko‘rsatishi uchun sharoitni yaratilishi ham o‘smirdagi diqqatni ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanishida zamin bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Yaxshi inson bo‘lish uchun siz diqqatni jamlashni va diqqatni jamlashni o‘rganishga yordam beradigan diqqatni rivojlantirish usullaridan foydalanishingiz mumkin.

Diqqatni rivojlantirish uchun oltita foydali mashq:

1. **Ortga hisoblash**. 100 dan 1 gacha teskari hisoblang. Miyangizni vaqtni kuzatish yoki qo‘shnining itining hurishi kabi boshqa fikrlarga berilib ketishiga yo‘l qo‘ymang. Faqat raqamlarga e’tibor qarating va agar chalg‘isangiz, boshidan boshlang.

2. **Ortga sanash uchda**. Oldingi mashqni bajarganingizdan so‘ng, ushbu mashqga o‘tishingiz mumkin. Bu safar 100 dan 1 gacha, uchta raqamgacha hisoblang. Masalan: 100, 97, 94, 91. Maslahatlar ishlatmang, raqamlarni qog‘ozga yozmang yoki barmoqlaringizni egmang. O‘zingiz bilan halol bo‘ling - bu qiyin ish, lekin samarali.

3. **So‘zga e’tibor qarating**. Har qanday so‘z yoki iborani o‘ylab ko‘ring va unga bir necha daqiqa e’tiboringizni qarating. Bu so‘z nimani anglatishini va nima uchun uni tanlaganingiz haqidagi fikrlardan chalg‘itmasdan o‘zingizga takrorlang.

4. **Mavzuga e’tibor qarating**. O‘zingizga tanish bo‘lgan har qanday ob’ektni tanlang, masalan, qalam yoki kundalik. Unga e’tibor qarating: eng kichik detallarga, to‘qimalarga, rangga yaxshilab qarang. Jismoniy mashqlar paytida o‘zingizni begona fikrlar bilan chalg‘itishga yo‘l qo‘ymang.

5. **Mavzuning tasviriga e’tibor qarating**. Agar siz oldingi mashqni osongina engib o‘tgan bo‘lsangiz, yangisiga o‘ting. Ko‘zlaringizni yuming va hozirgina eslab

---

[12] F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova «Umumiy Psixologiya». Toshkent -2009. 67-bet.

qolgan ob’ektni batafsil tasavvur qiling: uni batafsil takrorlang. Tafsilotlarni eslay olmasangiz, ko‘zingizni oching, ob’ektga yana qarang va mashqga qayting.

6. **Diqqatingizni nafasingizga qarating**. Barcha mashqlar orqada qolgandan so‘ng, qolgan vaqtni nafas olishga e’tibor qaratib, jimlikda o‘tkazing. Begona fikrlar bilan chalg‘itmang: shunchaki nafas oling .

Ko‘rinadigan soddaligiga qaramay, bu mashqlarni bajarish juda ko‘p iroda kuchini talab qiladi. Ammo o‘simlar uchun kutilgan natijani berishi mumkin.

**Xulosa**

Zamonamiz shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda o‘smirlarni diqqat e’tiborini chalg‘ituvchi omillarning ko‘pligi achinarli albatta. Lekin ularga to‘g‘ri yo‘nalish berish orqali kerakli natijaga erishishimiz mumkin. Ushbu jarayonda nafaqat psixologlar balki ota-onalar ham ma’sulyatni his etib farzandlariga ko‘proq e’tibor bersalar. Farzandlarini faoliyatini nazoratga olsalar maqsadga muvofiq bo‘lardi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarning aksariyatida diqqat bilan bog‘liq muamolar mavjud. O‘smirlar diqqatini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan “Shulte” testining natijasi ham shuni ko‘rsatmoqda. Agarda o‘smirlardagi diqqat muamosi o‘z vaqtida bartaraf etilmasa ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Vaqt o‘tgan sari o‘smirning o‘qish bilim olishga nisbatan istagi so‘nishni boshlaydi.

O‘qish jarayoni go‘yoki bajarish qiyin bo‘lgan faoliyatga aylanib qoladi.

Ushbu muamolarning kelib chiqish sabablari esa turlichadir. Masalan Charchoqning kuchayishi , o‘zini yomon his qilish, psixotravma mavjudligi, qiziq bo‘lmagan faoliyat, noto‘g‘ri faoliyat turi, kuchli begona stimullarning mavjudligi kabilardir.

O‘smirning diqqatini tashkil etish uchun uni harakatga jalb qilish, faoliyat mazmuni va natijalariga intellektual qiziqish uyg‘otish kerak. O‘smirlarning diqqatini o‘qish faoliyatida yaxshilash uchun avvalo atrofidagi tengdoshlari, fan o‘qituvchilari va albatta oilasidagi muhitni yaxshilash zarur. Oilasi yoki tengdoshlari bilan salbiy munosabatlar, nizoli vaziyatlar ham o‘smirning diqqatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu

esa chalg‘ituvchi omil vazifasini bajarib, diqqatni jamlashga, bilimlarni o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-Sessiyasida So‘zlagan Nutqidan.*

2. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova «Umumiy psixologiya». Toshkent -2009. 67-bet.

3. Y.Jumanazarov «Rivojlanish psixologiyasi» ma’ruzalar matni Namangan 2018 y.

4. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova «Umumiy psixologiya». O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008 yil.

# КАРТОШКА (*SOLANUM TUBEROSUM L.*) ЎСИМЛИГИДАН IN VITRO УСУЛИДА МИКРО ТУГАНАКЛАР ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

**Хазратов Аббос Тўлқин ўғли**

Тошкент давлат аграр университети магистранти

Xazratovabbos98@gmail.com

**Анотация:** ушбу мақолада картошка (solanum tuberosum l.) ўсимлигидан in vitro усулида микро туганаклар олиш технологияси ҳақида илмий асосланган маълумотлар келтирилган. шунингдек мақолада суний озиқа муҳитлари ва уларнинг кимёвий таркиби тўҳғрисида илмий маълумотлар ёзилган.

**Калит сўзлар:** in vitro, ўсимликлар, меристема тўқималар, микро туганаклар, оптимал намлик, каллус ҳужайралар.

**Annotation:** This article provides scientifically based information on the technology of obtaining micro-tubes in vitro from the potato plant (solanum tuberosum l.). The article also contains scientific information about artificial nutrient media and their chemical composition.

**Keywords:** in vitro, plants, meristem tissue, micro tubules, optimal humidity, callus cells.

In vitro усулида кўпайтириш натижасида олинган картошка микро туганаклардан фойдаланишнинг афзаллиги шундаки, улар касалликдан холи, ота-онаси билан бир хил, уруғ таъминоти мавсумга боғлиқ бўлмаган ва тўғри экиш мавсумига мослаша оладиган, турли навлар ва навлардан фойдаланиши мумкин. маҳаллий муҳитга мослашган, шунингдек, сақлаш ва ташишда иқтисодий аҳамиятга эга

Картошканинг вируссиз асосдаги уруғчилигини ташкил этишнинг асосий вазифаларидан бири юқори ҳосилдор, маҳаллий шароитларга мос, замбуруғ, бактерия ва вирус касалликларига чидамли навларини танлаш ва раёнлаштирилган навларни соғломлаштириш асосида сифатли уруғлик материал етиштиришдан иборат. Соғломлаштиришнинг энг оддий ва амалда қўлланиб келинаётган усули бўлиб, соғлом ўсимликларни визуал кузатиш ва серологик анализларга асосланиб танлаш ҳисобланади.

Агар нав вирус, микоплазмалар билан кучли зарарланган бўлса, визуал кузатиш ва серологик анализларга асосланган танловлар яхши самара бермайди.

Микро туганаклар - бу in vitro шароитида ишлаб чиқарилган майда туганаклар. Одатда ҳар бир ўсимликдан оғирлиги 0,2-0,7 г ва диаметри 3-10 мм бўлган микро туганак олиш мумкин.

Туганакларни суткасига 2-3 соат давомида 40 $^{0}$С ва 16-20 соат мобайнида эса 20$^{0}$С ҳароратда 50 кун давомида сақланиб соғломлаштириш усули қўлланилмоқда.

Эксплант ва уруғлар 5-20 мин стерилловчи эритмада стерилланиб, сўнг бир неча марта стерил сувда ювилади.

Стериллаш вақти эксплантни табиатига ва стерилловчи эритманинг фаоллигига боғлиқ. Уруғлар 10 -20 мин, вегетатив қисмлар эса 5-10 мин стерилланади.

Културалаш учун олинган ўсимлик эксплантлари олдин совунли сувда ишқалаб ювилади ва дистилланган сувда чайилади, сўнг бир неча секундга 70 % ли этанолга солинади, уруғлар эса 1-2 мин.га спиртга солиб қўйилади.

Озиқа муҳитда култураланаётган ўсимлик қисмларини (експлантлар) микроорганизмлар осон зарарлайди. Шунинг учун эксплант ҳам, озиқа муҳити ҳам стерилланган бўлиши шарт. Ажратилган тўқималар билан олиб бориладиган барча ишлар (културага ўтказиш, янги озиқа муҳитига кўчириш) стерил хоналарда, (ламинар боксларда) стерил асбоблар ёрдамида амалга оширилади, ажратилган тўқималарни ўстириш даврида ҳам стерилликни

сақлаш лозим, чунки ҳарорат пасайганда, ёки намлик юзага келганда идишнинг нам тиқини орқали пробирка ичига микроорганизмлар кириши мумкин.

Ташқи стериллаш фақат ташқаридаги инфекциялардан ҳоли қилади.Агар эксплантда ички инфекция мавжуд бўлса, у ҳолда антибиотиклар билан ишлов бериш зарур.

Културалаш учун озиқа муҳитлари таркибида ўсимлик учун зарур бўлган барча макроелеметлар (азот, фосфор, калий, калсий, магний, олтингугурт, темир) микроелементлар (бор, марганес, рух, мис, молибден ва бошқалар) шунингдек витаминлар, углеводлар, фитогормонлар ёки уларнинг аналогларини тутиши зарур. Баъзи озиқа муҳитларга казеин гидролизати, аминокислоталар ҳам қўшилади. Бундан ташқари, ҳужайранинг темирга бўлган талабини қондириш учун озиқа муҳитлар таркибига ЭДТА (етилендиаминтетрацирка кислота) ёки унинг натрийли тузи киритилади.

Шакллана бошлаган тўқималар ёруғликда 1000-4000 лк ёритиш остида култураланади.

Изоляцияланган меристемаларни културалаш ва уларни микрокўпайтириш ёруғликда амалга оширилади. Хоналарни ёритиш даражаси културага боғлиқ ҳолда 3000-10000 лкни ташкил қилиши керак.

Мазкур култураланаётган объект учун зарур бўлган фотодаврни ҳисобга олиш зарур. Културалар ўсаётган хонада намлик 60-70% ни ташкил этиши керак. Агар пробирка ёки колбалар оғзи пахта тиқин билан ёпилган бўлса, қуруқ ҳаво озиқ муҳитлар қуришига ва консентратсиясининг бузилишига сабаб бўлиши мумкин. Хонадаги намликнинг миқдорини ошириш учун идишларда сув қўйиб қўйиш мумкин. Кўпчилик култураланаётган тўқималар учун оптимал ҳарорат 25-26$^0$С, тропик ўсимликлар тўқималари учун эса 29-30С ни ташкил қилади. Морфогенез индуксиясини амалга оширишда ҳарорат 18-20С гача пасайтирилади. Ёруғлик, ҳарорат ва оптимал намлик режимини климатик камералар ёрдамида яратиш мумкин.

Микро туганаклар - бу in vitro шароитида ишлаб чиқарилган майда туганаклар.

Картошка ўсимлигини културага киритгандан кейин 25-30 кун ичида уни бўғин оралиғидан кесиб бошқа озуқа муҳитга экилади.

Ҳар битта озуқа муҳит солинган идишга 41-45тагача ўсимлик экилади ва келгусида ҳар биридан 2-5 тагача бўғин оралиғи ҳосил бўлиб, улар кесилиб озуқа муҳитига экилади.

Културага киритилгандан сўнг 60-90 кун оралиғида микро туганак олиш мумкин.

## ХУЛОСА

Дунёнинг картошка ишлаб чиқарувчи мамлакатларида вируссиз асосда ташкил этилган уруғчилик майдонларида сифатли уруғлик материал етиштириш асосида картошканинг юқори ҳосилдорлигини таъминловчи селекцион ва технологик тадбирларини ишлаб чиқиш долзарб муаммо ҳисобланади.

Уруғлик картошка етиштириш кенг камровли соҳа булиб унинг асосини, маълум картошка навининг касалликлардан (патоген ва вируслардан) холи бўлган бирламчи уруғлигини олиш ва уни босқичма-босқич кўпайтиришдан иборат.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Z. Zhang, W. Zhou and H. Li, “The role of GA3, IAA and BAP in the regulation of in vitro shoot growth and microtuberizations in potato”, acta physiol plant., 363-369 б.2005.
2. Абдукаримов Д.Т. - Влияние разных видов питания на урожайность картофеля в Зеравшанской долине. В сб.«Норма высева, способы посева и площади питания сельскохозяйственных культур». изд. Колос, М., 1971,205-210
3. Қ.Давронов. Биотехнология: илмий, амалий ва услубий асослари. - Тошкент: 2008. -504 б
4. Методические указания по селекции картофеля на устойчивость к вирусам, вироидным и микоплазменным заболеваниям. М., 1974. 61 б.
5. Трофим Л.Н. Защита картофеля от вирусных заболеваний семенной системы. Защита растений. 1975, 12 б
6. Файзийев В.Б. Картошка X-вирусининг Ўзбекистонда тарқалган изолятини ажратиш,хусусиятларини ўрганиш ва унинг диагностикаси. Тошкент2020. 9-10 б

# ОЛТИНСОЙ ТУМАНИГА ТАБИИЙ ГЕОГРАФИК ТАВСИФ.

**Боборахматов Маъруф Эргашович**
Мирзо Улугбек номидаги Узбекистан Миллий Университети 1 курс магистранти Георафия ва табиий ресурслар факултети

**Аннотация:** Мазкур мақола, Олтинсой туманига табиий географик тавсифи ҳақида бўлиб умумий тушунчалар ва қизиқарли фактлар ёритиб берилган. This article covers general concepts and interesting facts about the description of natural geography in Altınsoy district.

**Калит сўзлар:** Фолклор ансамбли, болалар поликлиникалари, серунум текислик, тарихий жойлар, суғориладиган ерлар. Folk ensemble, children’s polyclinics, serunum plain, historical places, irrigated lands.

**Кириш:** Олтинсой тумани, Сурхондарё вилоятидаги туман. 1981-йил 23-ноябрда Шўрчи ва Денов тумани қисмларидан тузилган. Вилоятнинг Денов, Бойсун, Шўрчи, Қумқўрғон туманлари билан чегарадош. Майдони 0,56 минг км². Аҳолиси 184,9 минг киши (2022). Туманда 9 қишлоқ фуқаролар йиғини (Вахшивор, Дуғоба, Миршоди, Олтинсой, Оқарбулоқ, Оқолтин, Хо‘жасоат, Чеп, Қарлуқ) бор. Туман маркази — Қарлуқ қишлоғи.

Табиати. Олтинсой тумани Сурхондарёнинг шимолий қисмидаги серунум текисликда жойлашган. Ер юзаси шарққа томон пасайиб боради. Ғарбий чеккалари Кераготоғ этагига туташиб кетади. Туман марказидан Олтинсой дарёси, шим.дан жан.га томон Ҳазарбоғ канали оқиб ўтади. Релъефи, асосан, текислик ва адирлардан иборат. Баландлиги 400–700 м.

Иқлими қуруқ, типик субтропик иклим. Йиллик ўртача температура 15,9°. Январнинг ўртача температураси 2,6°. Энг паст температура —25°. Июлнинг ўртача температураси 32—33°. энг юқори температура 46°. Йиллик ёғ‘ин 240–260 мм. Вегетатсия даври 230 кун, Баъзан кучли шамоллар эсади. Тупроклари

ўтлоқи-ботқоқ, бо'з тупроклар. Ёввойи ўсимликлардан шувоқ, шўра, янтоқ, бодом, писта, тоғ райҳони, дўлана, ровоч, алқар ва бошқа ўсади. Ёввойи ҳайвонлардан бўри, тулки, жайрон, каламуш, қо'шоёқ, юмронқозиқ, кўрсичқон, жайра, тўқайларда тўқай мушуги, қобон, чиябўри, қушлардан майна, сўфитўрғай, каклик, қалдирғоч, кўршапалак, ғоз, ўрдак, судралувчилардан ўқилон, геккон, кўзойнакли илон ва бошқа бор.Аҳолиси, асосан, ўзбеклар, тожик, рус, татар ва бошқа миллат вакиллари ҳам яшайди. Аҳолининг ўртача зичлиги 1 км² га 209 киши. Хўжалиги. Туман хўжалиги асосан қишлоқ хўжалигига ихтисослашган. Саноат, транспорт, алоқа корхоналари бор. Қишлоқ хўжалигида боғдорчилик асосий ўрин тутади. Айниқса, токчилик ривожланган. Пахта, дон экинлари, сабзавот, полиз экинлари ҳам экилади. Саноат корхоналаридан Олтинсой "Шароб" самарали ишламоқда. "Шароб" корхона-си 1982-йилда Денов вино-арақ заводи таркибидан ажралиб чиққан. Бир йилда 800 минг литр вино ишлаб чиқарилади. "Портвейн", "Жасорат", "Мускат", "Кагор" навешри машҳур. Олтинсой туманида 2 қўшма корхона, 5 йирик саноат .корхонаси, 172 кичик ва хусусий корхона бор. 2003-йилда қишлоқ хўжалигида суғориладиган ерлар 12,4 минг га, шу жумладан, 4,1 минг га ерга пахта, 4,2 минг га ерга дон экинлари, 578 га ерга сабзавот, 90 га ерга полиз экинлари экилади, 852 га боғлар, 5,5 минг га токзорлар билан банд. Олтинсой туманида 16 ширкат хўжалиги, 120 фермер хўжалиги бор. Туман жамоа ва шахеий хўжаликларида 33490 корамол, 49800 қўй ва эчки, 895 от, 50900 парранда боқилади.Туманда 61 умумий ўрта та'лим мактаби (34770 о'қувчи), 4 коллеж (1700 талаба), лицей-интернат, мусиқа мактаблари бор. "Ёрилтош" ҳаваскор қўғирчоқ театри, "Алпомиш" ширкат хўжалигидаги фолклор ансамбли маданий хизмат ко'рсатади. Марказий касалхона, катталар ва болалар поликлиникалари, ишлаб турибди. Стадион, 7 та спорт зали, футбол, волейбол, баскетбол, қўл тўпи майдонлари мавжуд 1986-йилдан "Олтин-сой тонги" туман газетаси чиқарилади (адади 900).[1]

Олтинсой тумани Сурхондарё вилояти худудида 1981-йил 23-ноябрда Шо'рчи ва Денов туманлари асосида тузилган. Туман умумий майдони 0,56

минг км квни ташкил этади. 2022-йилнинг 1-январь ҳолатига кўра туманда доимий аҳоли сони 184,9 минг кишини ташкил этди. Туман маркази - қарлуқ аҳоли пункти, Термиздан 140 км шимолий-шарқда жойлашган. Яқин темир йўли бекатигача (Шўрчи разезди) 23 км. Туманда 1 та шаҳар типидаги қўрғон (қорлиқ), 9 та қишлоқ фуқаролар йиғини (Вахшивор, Дуғоба, Миршоди, Олтинсой, Оқарбулоқ, Оқолтин, Хўжасоат, Чеп, Қарлуқ,) бор ҳамда 54 та қишлоқлар мавжуд. Туман маркази - Қарлуқ қишлоғи.

Олтинсой Сурхондарёнинг шимолий қисмида серунум текисликда жойлашган. Ер юзаси шарққа томон пасайиб боради. Ғарбий чегаралари "Керагатоғ" этагига туташиб кетади. Туман марказидан Олтинсой дарёси, шимолдан жанубга қараб «Хазарбоғ» канали оқиб ўтади.

Туманда 16 та жамоа хўжалиги бор. Қишлоқ хо'жалигида боғдорчилик асосий ўрин тутади. Айниқса, узумчилик ривожланган. Бундан ташқари пахта, дон экинлар, сабзавот, полиз экинлари хам экилади. Яйловларида қорамол, қўй, эчки боқилади. Бобур номидаги «, Олтинсой», Улуғбек номидаги «, Сайрак» жамоа хўжаликлари узум ҳосили, шунингдек дон маҳсулотлари етиштиришда вилоятда етакчи хўжаликлардан. Пахта етиштиришда «Пахтакор», «Хўжаипок», «Оқолтин» жамоа хўжаликлари илғор. Олтинсойда бир қанча тарихий жойлар Бор. Булардан энг йириклари: Дегрезтепа, Мунчоқтепа, Қизилтепа, Қоратепа, Тарағайтепа, Жиянбобо ва бошқалар.

**Фойданилган адабиётлар рўйхати.**

1. П. Баратов, Ўзбекистон табиий географияси. Т.: Ўқитувчи-1996

2. Сурхондарё вилояти ўлкашунослик атласи, Т-2016

3. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н., Қаюмов А.А., Ўзбекистон табиий географияси (2-қисм), Т: «Университет» 2009

4. Сурхондарё вилояти ўлкашунослик атласи, Т-2016

# QAMASHI TUMANINING GEOLOGIK TUZILISHI VA RELYEFI

**Yo‘ldashov Davronbek Arziqul o‘g‘li**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Unversiteti 1-kurs magistri

**Annotatsiya:** Maqolada Qamashi tumanini ma’lum geologik vaqt davomida rivojlanish tarixi, geologik hosilalarning rivojlanishi va ro‘y bergan burmalanishlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Ordovik, gertsin, gips-angidrid, kaynozoy, kontenintal, gorizontal, tektonik, paleogen, assimetrik, lyoss.

Qamashi tumanining geologik tuzilishi murakkab bo‘lib, metamorfik jinslaridan tashkil topgan.

Ordovik silur va devon davrlarida bu xududda dengiz bo‘lgan. Uning oxaktosh, gil, qumtosh tarkibli hosilalari bu davrlardan keyin ro‘y bergan gertsin burmalanishi natijasida metamorflashgan.

Tumanning tog‘ va tog‘ oldi qismi yura va bo‘r davrlarining dengiz yotqiziqlaridan iborat. Chunki tog‘ tizmalari avval gertsin va so‘ng alp orogenizida burmalangan. Bunga tuman hududiga tegishli qismi yura davri iliq dengiz mahsulotlari bo‘lgan oxaktosh va gips-angidridli jins majmualaridan tashkil topganligi bunga ishoradir. Kaynozoy erasining paleogen davrida bu joylar o‘rtacha sayozliklardagi iliqroq dengiz bilan qoplangan. Chunki bunday sharoit hosilasi bo‘lgan paleogen davri Buxoro geologik asri chig‘anoqli oxaktoshlar aksariyat kichik tog‘ tizmalarining yadrosini tashkil etadi. Endilikda o‘ziga xos yemrilishga moyil va assimetrik kichik tizmalar sifatida namoyon bo‘lgan chig‘anoqli ohaktosh tog‘-qir silsilasi bu joylar relyefining xarakterli xususiyatidir.

Tumanning tog‘ oldi mintaqasi adirlar siniq-chaqiq jins qatlamlaridan tashkil topgan bo‘lib, ular neogen davri dengiz va quruqlik o‘zaro ta’sirida jarayonining natijasida tog‘ oldi relyefining o‘ziga xos hosilasi bo‘lgan adirlar yuzasi to‘rtlamchi

davr lyossimon yotqiziqlari bilan qoplangan. Kontenintal hosilalari bo‘lmish adir zonasidagi konglomeratlarning qalinligi 100 metrgacha yetadi. Tumanning tekislik qismi to‘rtlamchi davrning turli geologik asrlarida vujudga kelgan daryo yotqiziqlari ta’sirida tuzilgan qum vag gil toshlar bilan qoplangan. 10-15 metr qalinlikdagi bu qoplam tagida paleogen yotqiziqlari bor. Yura davriga mansub dengiz gil toshlari va qum toshlarining qatlamlari joylashgan. Qizil, ko‘k va jigarrang gil toshlar tagida o‘rtacha 800-1000 metr chuqurlikda yura davri marjonli ohaktoshlari, shuningdek ayrim joylarda gips angidrit, toshtuz qatlamlaridan iborat yotqiziqlar joylashgan, xususan gorizontal qatlamlarni tashkil etuvchi bu jinslarning majmualari qo‘ng‘ir tog‘ kabi qoldiq tog‘larining tektonik tuzilmalari yer yuzasiga yorib chiqqan burmalaridan ko‘rinadi.

Tuman relyefi g‘arbdan sharqqa va Qashqadaryo o‘zanidan janubiy shimolga tomon asta-sekin ko‘tarilib boradi. Bu hududning g‘arbiy qismi relyefi tekisliklardan iborat bo‘lib, umumiy maydonining 1/4 qismini Qarshi dashtlari egallagan. Tuman relyefi sharqga va janubga tomon ko‘tarila borib tekisliklar-adirlar, so‘ngra past va balandroq tog‘lar bilan almashinadi. Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqlaridan bo‘lgan Chaqchar tog‘i eng baland tog‘ bo‘lib, katta Xuroson, katta Xarsang cho‘qqisining dengiz sathidan balandligi 3749 metrni tashkil qiladi va u Qashqadaryo havzasini Surxondaryo havzasidan ajratib turadi.

Ma’lumki, tuman yer yuzasining hozirgi qiyofasi geologik taraqqiyot bosqichlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ana shu bog‘liqlikni hamda hozirgi relyef hosil qiluvchi jarayonlarning xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tuman hududida uchta relyef mintaqasini ajratish mumkin .

1. Tekislik relyefi mintaqasi
2. Tog‘ oldi yoki adir relyefi mintaqasi
3. Tog‘ burmali relyefi mintaqasi

Tekslik relyefi tuman hududining katta qismini egallaydi. U Qarshi cho‘llariga tutash qismida va Yakkabog‘ tumanini chegarasigacha davom etadi. Qamashi tumanining tekislik hududini ikki qismga ajratadi.

1. To‘lqinsimon yassi tekisliklardan tashkil topgan Qashqadaryo o‘ng sohili tekisliklari.

2. To‘lqinsimon yassi va qiya tekisliklardan tashkil topgan Qashqadaryo chap sohili tekisliklari.

Bu tekisliklar relyefi tumanning tog‘ va tog‘oldi mintaqalaridan tashqari, hamma joyda keng tarqalgan bo‘lib, janubda Hisor tog‘lari tomon ko‘tarilib, to‘lqinsimon qiya tekisliklar relyefi bilan almashinadi. Tog‘oldi adirlaridan boshlanadigan ko‘pchilik soylarning quyi oqimidagi yoyilma konuslar to‘lqinsimon o‘rkachli tekisliklarni hosil qiladi. Ayni xildagi relyef G‘uzor-Qamashi oralig‘ida juda aniq namoyon bo‘lgan. Bu yerlarni 40-60 metr qalinlikdagi to‘rtlamchi davr lyoss yotqiziqlaridan tashkil topgan qirlarda eroziyaning kuchli rivojlanganligini kuzatish mumkin.

Yuqorida takidlangan tekisliklarning janubida ya’ni Hisor tog‘ tizmalarining shimoliy etaklarida adir mintaqasi yotadi.

Tog‘oldi qiya tekisliklari hisoblangan adirlar shimoldan janubga tomon 600-1200 metr balandliklargacha ko‘tarilib boradi. Bu adirlar (8x18 km) Chaqchar tizmalariga tutashib ketadi. Langar, Yakkabog‘ daryo havzalarini ishg‘ol qiluvchi va anchagina keng maydonlarni egallab yotgan tuman, adir mintaqasi tog‘ va tekislik oralig‘ida yaqqol ajratib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Qarshi-1994.
2. Qamashi tumani pasporti. 2017-2019.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2008
4. Qashqadaryo viloyati O‘lkashunoslik atlasi

# ABDUG'ANI ABDUVALIYEVNING "MARHUMNING MAKTUBI" QISSASIDA DAVR VA INSON MUAMMOLARI

**Baxriddinova Muazzamxon Fazlitdin qizi**
Nam DU adabiyotshunoslik (oʻzbek adabiyoti) yoʻnalishi 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada Abdugʻani Abduvaliyevning "Marhumning maktubi" qissasi, qissadagi davr va inson muammolari qalamga olingan. Bosh qahramon Jobirning xarakter xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit soʻzlar:** hajviya, satira, qissa, marhum, muammo, davr, qahramon.

Oʻzbek adabiyotida bugungi kungacha koʻplab hajviy asarlar yaratilgan. Bu hajviy asarlar turli janrlarda yartilgan boʻlsa-da, ularning deyarli barchasida jamiyatdagi, insonlar xarakteridagi ayrim kamchiliklar, qusurlar, kulgi vositasida koʻrsatib berilgan. Muqimiyning "Tanobchilar", Abdulla Qodiriyning "Kalvak Mahzumning xotira daftaridan", "Toshpoʻlat tajang nima deydi?", Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush", "Ayajonlarim", Said Ahmadning "Qoplon", "Sobiq", Erkin Vohidovning "Matmusaning qishlogʻi", "Oltin devor", Abdugʻani Abduvaliyevning "Assalomu alaykum", "Marhumning maktubi" kabi asarlari oʻzbek kitobxonlarining eng sevimli asarlaridandir. Bu asarlarning barchasi satira va yumor tarzida yaratilgan boʻlsa-da, ularning zamirida yozuvchi qalbini oʻrtayotgan xalq dardi yoki jamiyatning qaysidir muammosi yotadi. Jumladan, tahlilga tortadiganimiz, Abdugʻani Abduvaliyevning "Marhumning maktubi' qissasi ham ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Qissa 1994-yil "Yoshlik" jurnalining 5 sonida bosilib chiqqan va minglab kitobxonlar qalbidan joy olgan edi. Sababi, marhumning maktubi asosida yozilgan bu hajviy qissa shoʻro hukumati, mustabid komfirqaning ayollar borasidagi siyosatiga qarshi aybnomadir. Komfirqa (KPSS) sirtdan qaraganda ayollarning jamiyatda tutgan oʻrniga, mavqeiga juda katta e'tibor berayotgandek tuyiladi. Aslida-chi? Bu siyosat niqoblangan, munofiq siyosat edi. Oddiy ayollarning

qo'li kosov, sochi supurgi, dalalarda, qurilishlarda zahar yutayotgan, o'ziga o'zi o't qo'yayotganligi, partiya, sovet idoralariga xo'jako'rsinga o'tqazib qo'yilgan, milliy o'zligidan yiroqlashib qolgan ayrim xotinlar esa yasama qo'g'irchoq ekanligini firqaning o'zi ham bilardi. Ammo bilaturib, ayollarning teng huquqliligi haqida jar solar edi.

Bunday yuzsiz va puch siyosat hukmron bo'lgan tuzumda yashaydigan halol va pok, imonli odam bevaqt xazon bo'lishi mukin edi. Qissa qahramoni Jobir ismli oddiy yigit, ana shu siyosatning qurbonlaridan biridir. Sho'ro tuzumidan, communist xotinning zug'umidan o'lib qutulgan bu yigitning maktubini o'qib, ham kulasiz, ham kuyasiz. Ushbu qissa jurnalda e'lon qilinishi bilan o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Asar adabiyot bilimdonlari tomonidan mustaqillik davrida yaratilgan eng yaxshi satirik asarlardan biri deb e'tirof etildi. Yozuvchi bu qissani 2002-yilda Namangan nashriyotida bosilib chiqqan "Munajjimning xatosi' to'plamiga kiritgan.

"Marhumning maktubi" qissasi hajman kichik. Qissa bosh qahramon Jobir tilidan hikoya qilinadi. Jobir u dunyodan turib, bu dunyoga xat yozadi. Kitobxon qahramonning xatini o'qir ekan, bosh qahramon Jobir (Jabriy)ning holatidan qotib-qotib kulish barobarida unga chin dilidan achinadi. Yozuvchi bosh qahramon Jobir obrazi orqali sovet davrida yashagan, biri ikki bo'lmagan, hatto "Xudo" deyishga qo'rqadigan minglab insonlarning fojeasini ko'rsatib beradi. Adib bosh qahramon Jobirni qissa boshida bizga shunday tanishtiradi: "Ushbu qissa qahramoni sobiq sho'ro davlatining fuqarosi, Qizil imperiya va Komfirqa saltanatining qurbonlaridan biri. U Tangri taolo tomonidan insonga berilgan hayotning chin ma'nosini o'lgandan so'nggina anglaydi"[1]. Shu qisqagina so'zboshidanoq Jobirning qanday insonligi bizga ma'lum bo'ladi va Jobirning qanday shaxs ekanligiga qiziqib qolamiz. Aslida, Jobir oddiy oilada, yetimlikda katta bo'lgan yigit. Maktabni oltin medal bilan bitirib, tibbiyot institutiga o'qishga kirmoqchi bo'ladi. Ammo imtihon topshirayotganda unga puli bo'lmasa o'qishga kirolmasligini ochiq- oydin aytishadi. Uning hayotidagi muammolar ana shundan

1. Abdug'ani Abduvaliyev. "Munajjimning xatosi". – Namangan. 2002-B.3.

keyin boshlanadi. Jobir bu hayotdagi muammolardan o‘lganidan so‘nggina qutiladi. Jobir bu hayotda qiyinchiliklar ko‘rishiga asosiy sabab tuzum bo‘lsa, ikkinchi sabab- uning xotini. Muallif xotinning o‘zligidan, milliyligidan qanchalik yiroqlashib ketganini uning ismi orqali ham ma’lum qiladi. Uning asl ismi- Zarifa, lekin hamma uni Zoyichka deb ataydi. Asarni o‘qir ekanmiz, bu xotin tashqi jihatdan juda chiroyli bo‘lsa-da ichki dunyosi xuddi jamiyat singari chirkin ekaniga guvoh bo‘lamiz. Qahramonimiz Jobir uning ana shu tashqi go‘zalligiga oshno bo‘lib uylanadi. O‘zi bu holatni shunday izohlaydi: “ Lekin xotin ham ofatijon edi-da: lab yupqa, qosh kamon, engilda yubka, ko‘z maston. Bo‘ydoq yigitga maymun malikadek, qarg‘a bulbuldek tuyulgan paytda ko‘zga ko‘ngil emas, ko‘rpa ko‘rinib ketarkan. Rahmatli kasalmand onam qiz tanlab yurgan paytlarda kimdir shu qizni topdi-da. Onam ko‘nmadi. “Qizning ota- onasi ja, boy ekan, o‘zi prokuror ekan, buning ustiga chiroyli ekan, hay-hay-hay, bizga to‘g‘ri kelmaydi”,- dedi… Qiz tomon: “Sizlar hech qanaqa harajat qilmaysizlar, to‘yni o‘zimiz ko‘taramiz”, deganidan keyin bechora kambag‘al onam ham rozi bo‘ldi”.[2] To‘ydan keyin esa xotinning asl basharasi ma’lum bo‘ldi. Jobir bu xotindan va bu tuzumdan faqt o‘libgina qutuladi. Qissa davomida yozuvchi turli xalq maqollari, iboralar, qochirimlardan ustalik bilan foydalanadi. Qahramonlarning xarakterini ochib berishda sheva elementlari, vulgar so‘zlar, rus tiliga oid so‘zlar alohida o‘rin egallaydi. Qahramonimiz shunchalikka borgan ediki, hatto u dunyoda ham ruscha aralashtirib gapiradi. Jobirni biz hech ikkilanmay umumlashma obraz deb ayta olamiz. Sababi, yozuvchi bu obraz orqali o‘sha davrning deyarli barcha insonlarining qiyofasini, davr, tuzum, siyosat ularni qay darajaga olib borganini ko‘rsatib bermoqchi bo‘ladi. Adib birgina Jobir obrazi orqali davrning barcha soxalariga nazar tashlaydi, kamchiliklarni, illatlarni, o‘z soxasini yaxshi bilmaydiganlarni, jamiyatdagi poraxo‘rlik, o‘zibo‘larchilik kabi qing‘ir ishlarni ayovsiz ochib tashlaydi. Qahramonimiz Jobir asli shifokor bo‘lsa-da, hali shoirlikka, hali parixonlikka qo‘l urib ko‘radi. Maza-bemaza she’rlar yozadi,

2. Abdug‘ani Abduvaliyev. “Munajjimning xatosi”. – Namangan. 2002- B.12.

aroqxoʻrlik bilan aroqxoʻrlarni davolamoqchi boʻladi. Adib Jobirning bu ishlari orqali jamiyatdagi chala shoirlarni, oʻz ishini yaxshi bilmaydiganlarni bizga namoyish qiladi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, “Marhumning maktubi” qissasi oʻzbek hajviyotining, xususan, Namangan hajvchiligining ajoyib namunasi. Qissada qalamga olingan muammolar davrlar oʻtsa-da oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi. Insoniylikning asl mazmunini anglashga, dunyoga kelishimizdan asl maqsad nima ekanini bizga eslatib turuvchi bu asar qayta-qayta oʻqilaveradi, kitobxonlarni, ezgulikka, insoniylikka, hayotdan zavq olib yashashga undayveradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Abdugʻani Abduvaliyev. “Munajjimning xatosi”. – Namangan. 2002.
2. A. Halilbekov. “Namangan adabiy gulshani”-“ Namangan” nashriyoti.2007.
3. “Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnali. 2022- yil 1-son.

# RAHBAR KADRLARNI ISH USLUBIYATI VA UNI BOSHQARUVDAGI ROLI

**Karorov Akramjon Sattarovich**

Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tatqiqot instituti magistranti

**Annotatsiya:** Maktablar samaradorligini oshirish uchun rahbar xodimlarni boshqarish jarayonining faoliyati ishlab chiqilishi kerak. Maktablarda xodimlarni boshqarish jarayonining mazmunili tadqiq qilish va mexanizmini ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** tashkilot, xodimlarni boshqarish, ishlab chiqish vositalari, texnologiyalar, innovatsion takliflar.

Hozirgi bosqichidagi eng muhim muammolardan biri bu maktablarda boshqaruv kadrlari bilan ishlashni takomillashtirish muammosidir. Tashkilotlarning ichki boshqaruv tizimi uchun rahbar - bu yangi turdagi boshqaruvchi bo‘lib, uning asosiy faoliyati mehnat, aql va boshqa odamlarning xatti-harakatlarini rag‘batlantirish orqali belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan. O‘rganish uchun taklif etilayotgan boshqaruv xodimlarining raqobatbardoshligini oshirish muammosi, albatta, dolzarb bo‘lib, zamonaviy sharoitida rahbarlikni boshqarish tashkilotning samarali faoliyatida hal qiluvchi omilga aylanadi va bu strategik boshqaruv siyosatida hisobga olinishi kerak. Maktablarda xodimlarni boshqarish jarayoni quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: texnik vositalar majmuasi;

xodimlarni boshqarish uchun axborot bazasi;

mehnat va xodimlarni boshqarishni tashkil etish usullari va usullari majmui;

huquqiy baza;

xodimlarni boshqarish bo‘yicha dasturlar va texnologiyalar.

Xodimlarni boshqarish - bu tizim ma’lumotlari va funktsional boshqaruv tsikli orqali o‘ziga xos va yuqori tizimning (tashkilotni boshqarish tizimi) tartibli va barqaror holatini ta’minlaydigan bir xil yaxlitlik hisoblanadi. Shuning uchun

xodimlarni boshqarish jarayoni bir vaqtning o‘zida funksional tizim bo‘lib, u o‘z navbatida qismlarga bo‘linadi, masalan, xodimlarni tanlash, baholash, moslashtirish [1].

---

1. Anisimov O.S., Derkach A.A. Umumiy va boshqaruv akmeologiyasining asoslari. M.; Novgorod: SET, 1995. 272 p.

Rahbarlik mahorati makatab, firma va kompaniyalarda yo‘lga qo‘yilgan mahsulot ishlab chiqaruvchilar yoki xizmat ko‘rsatuvchilar mehnatining samarali tashkil qilinishiga bog‘liq. Shuningdek, uning faoliyati ishlab chiqarish natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi va boshqaruv funktsiyalarini tezkor ravishda amalga oshirib boruvchi hatti-harakatlar jamlanmasini o‘zida mujassam etadi. Mahoratli rahbar to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy boylik yaratmasdan, biroq uning boshqaruvchilik faoliyati ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladi. Shuningdek, rahbar mahorati ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarida kuzatiladigan o‘zgarishlar asosida baholanadi.

Ko‘rinib turibdiki, rahbar mahorati korxonaning samarali faoliyatiga ulkan ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Ayni vaqtda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish, korxonalarning boshqaruv faoliyatini samarali tashkil qilish, yurtimizdagi barcha sohalarda ish faoliyatini strategik reja asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator qarorlar qabul qilindi. 2017 yil 7 fevralda Prezident Shavkat Mirziyoev Farmon bilan tasdiqlangan ―Harakatlar strategiyasi‖da mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi belgilab berilgan.2

Avvalo, ushbu ustuvor yo‘nalishlar va ulardagi amalga oshirilishi nazarda tutilgan vazifalar hamda chora-tadbirlarning ijrosi bugungi kunning hayotiy va ijtimoiy zarurati ekanligini ta’kidlash lozim. Shu bilan birgalikda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdilar.

Bugungi kunda dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat tobora keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish bo‘yicha biz uzluksiz ish olib borishimiz kerak. Nega deganda, bu masala hozirgi vaqtda aholi farovonligini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini barqaror rivojlantirish, Vatanimizning yorug‘ kelajagini bunyod etishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda.3

Kadrlar boshqaruvining roli ortib borayotganiga qaramay, bu masalani davlat tomonidan tartibga solish hali ham yetarli emas. Mintaqaviy darajada statistik hisobot tizimini qayta tiklash, mehnat resurslari sifatini yaxshilash bo‘yicha normativ hujjatlarni qabul qilish va xodimlarni sertifikatlash tizimini yaratish kerak. Ushbu chora-tadbirlar maktablarda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi, bu esa xodimlarning sifati va raqobatbardoshligiga bevosita bog‘liqdir. Raqobatchilar va raqobat sharoitlarini o‘rganish maktablar uchun, birinchi navbatda, uning boshqa ish beruvchilarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklari qanday ekanligini aniqlash va o‘zining muvaffaqiyatli raqobat strategiyasini ishlab chiqish va raqobatdosh ustunlikni saqlab qolish uchun xulosalar chiqarish uchun talab qilinadi.

---

2 Mirziyoyev Sh.M. ―2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvoryo‘nalishi bo‘yicha ―Xarakatlar strategiyasi‖ Farmoni 7 fevral 2017 yil.

3 Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2017 yil 7 dekabr.

Rahbarning ish uslubi - bu boshqaruv jarayonida u yoki bu masalalarni hal qilishda uning o‘ziga xos yondashishidir. Rahbar qaror qabul qilganda, uning bajarilishini tashkil etganda va qo‘l ostidagi kishilar ishini nazorat qilganda u o‘z vazifalariga muvofiq ish ko‘radi. Biroq har bir rahbar bunda o‘ziga xos ravishda, boshqaruv jarayonida o‘zi uchun mos bo‘lgan, o‘z rahbarlik uslubini belgilaydigan usullar bilan xarakat qiladi. Mutlaqo bir xil ikki kishi bo‘lmaganidek, rahbarlikda

ham mutlaqo bir xil uslub yo‘q. Rahbarlik uslubi rahbarlarning o‘z qo‘l ostidagilari bilan aloqasida, ularning o‘zaro munosabatlarida tarkib topadi

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Karimov I.A. Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir”. /Xalq so‘zi. 2016 yil 17- yanvar.

2. Karimov I.A. ―2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi‖. T.: O‘zbekiston, 2012.

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: ―O‘zbekiston‖ NMIU, 2017. – 488 b.

4. Mirziyoev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: ―O‘zbekiston‖ NMIU, 2017. – 104 b.

6. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: ―O‘zbekiston‖ NMIU, 2017. – 56 b.

7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: ―O‘zbekiston‖ NMIU, 2017. – 48 b.

# OYATULLOH RUHULLOH HUMAYNIYNIG INQILOBIY HARAKATI.

**Zikirov Qalandar Iskandar o’g’li**

TDSHU. Sharq mamlakatlari tarixi va hozirgi zamon muammolari kafedrasi

1-kurs magistranti.

Ilmiy rahbar: **Abdullayev U.A**

**Annotation:** This story examines the events leading up to the 1979 Islamic Revolution in Iran and the role of Ayatollah Ruhollah Khomeini in bringing about that revolution. It attempts to demonstrate the social, psychological, political, and religious factors that led to the rise of Khomeini as the leader of the revolution. It furthermore focuses on Khomeini’s strategy to oppose, destabilize, and eventually overthrow the Shah of Iran through various means. This thesis is limited to the study of Khomeini as a revolutionary figure, not as a head of state.

**Anotatsiya:** Bu maqola 1979-yilda Eronda islom inqilobiga olib kelgan voqealar va bu inqilobni amalga oshirishda Oyatulloh Ruhulloh Humayniyning rolini qay darajada kasb etgaligini o‘rganamiz. Bunda O. Humayniyning inqilob rahbari sifatida ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy, psixologik, siyosiy va diniy omillarni ko‘rsatishga harakat qiladi. Bundan tashqari, u turli yo‘llar bilan Eron shohiga qarshi turish, beqarorlashtirish va oxir-oqibat ag‘darish uchun Humayniy strategiyasiga qaratilgan. Bu maqola Humayniyni davlat boshlig‘i sifatida emas, balki inqilobiy shaxs sifatida o‘rganish bilan cheklanadi.

**Kalit so‘zlar:** Islom inqilobi, O.Humayniy, “Buyuk shayton”, Strategiya, Kommunist, Sotsialist,”Payg‘ambarlik”, Maks Veber , “Kashf al-asror”, Muhammad Rizoxon paxlaviy.

G‘arb tahlilchilari tomonidan Oyatulloh Humayniyning Amerikani “Buyuk shayton” deb qoralagani tasvirlari, mantiqsiz diniy olomonning AQSh bayrog‘ini yoqib yuborishi, urushdan qo‘rqqan elchixonaning ko‘r-ko‘rona garovga olinganlari

va zulmkor hukumat haqidagi tasavvurlarni uyg'otishga urinilgan manbalar bor. Bundan tashqari ayollar va ozchiliklarning inson huquqlarini mahrum qilinganligi. Ammo bu tasvirlar ko'plab g'arbliklar va dunyoning ongida doimiy ravishda targ'ib etilishidan oldin ham Humayniy o'nlab yillar davomida Eronda xorijiy madaniy va siyosiy ta'sirga qarshilik ko'rsatgan. U Eron Islom Respublikasining amaldagi rahbari bo'lishidan oldin, u juda mashhur siyosiy ta'sirga ega bo'lgan monarxiyaga tuzimiga qarshi xalq qo'zg'olonini boshqargan diniy inqilobchi edi. Garchi Humayniyni ko'pincha reaktsion diniy g'ayrat sifatida ko'rsatgan G'arb tomonidan salbiy qaralsa ham, u har xil eronliklar va islom shialari tomonidan ommaviy qo'llab-quvvatlangan.

O. Humayniy So'l ziyolilar, kommunistlar, sotsialistik, dunyoviy musulmonlar, din arboblari va oddiy odamlardan tashkil topgan "norozilar koalitsiyasi"ga boshchilik qilib, yaxshi mustahkam o'rnashgan va chet el tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan diktator, ya'ni " Buyuk shoh" Muhammad Rizo Pahlaviy ustidan g'alaba qozona oldi. Bu muvaffaqiyatli inqilob geosiyosatda yangi davrni boshlab berdi, bu davr islomiy davlatni vujudga kela olishini isbotladi. Islomning yetakchi siyosiy va diniy falsafa sifatida yangilanishini va G'arb dunyosi bilan islom dini olami o'rtasidagi yangi ziddiyatlarni boshlab berdi.

Ba'zilar hatto buni yangi "jahon urushi" deb da'vo qilishadi.[13]

Biroq, bu yerda biz nazarimizni Islom Respublikasiga emas, balki Humayniyning Iron Islom inqilobidagi shaxsiy rolini o'rganishga e'tibor qaratamiz. Oyatulloh Humayniyni davlat arbobi sifatidagi boshqaruv davrini emas, balki inqilobiy shaxs sifatida tahlil etishga harakat qilamiz. Shuning uchun ham 1979-yil yanvarida Shoh hokimiyatdan ag'darilganidan oldingi Humayniyning siyosiy hayoti bilan cheklanadi.

Birinchidan, Humayniyning siyosatga birinchi marta siyosiy mavzuga qiziqa boshlagan 1940-yillardan toki 1960-yillargacha davom etdi. Birinchi marta shohga qarshi chiqa boshladi. Buning natijasida, Turkiya, Iroq va Frantsiyaga surgun

[13] See Bacevich, Andrew J. The New American Militarism: How Americans are Seduced by War. New York: Oxford University Press, 2005.

qilingan va nihoyat bulardan so‘ng siyosiy hayotiga kirib keladi. Eronnning "oliy rahbari" sifatida namoyon bo‘ldi. Ikkinchidan, Humayniyning xalqni inqilobda qanday qilib muvaffaqiyatli boshqarganligini o‘rganar ekanmiz, birinchi navbatda, sotsiolog Maks Veberning asarlariga yoki jamiyatning tanqidiy nazariyasiga asoslanib bu mavzuni yoritishga harakat qiladigan bo‘lsak. Islom dining Shi’a mazhabidagi “O‘n ikkinchi imom” nazariyasini Humayniy tatbiq etiganligi va bu nazarya uning muvaffaqiyati uchun qisman bo‘lsa ham xizmat ko‘rsatgan.

Butun tarixiy davirdan kelib chiqqan holda “Kelajak nazaryasi” tushunchasini ilgari surgan holda Humayniyning marksistik-leninistik g‘oyalar o‘rtasidagi aloqani e’tibor qaratgan holda, Humayniy Shoh va uning xorijiy xayrixohlariga qarshi inqilobni boshqarishda qanday muvaffaqiyatga erishganiga qaraydigan bo‘lsak. Tadqiqotlar natijasida Humayniyning inqilobchi sifatidagi muvaffaqiyati ikkita asosiy mavzuga asoslanganligini anglashimiz mumkin. Birinchi muhim komponent uning “Kelajak nazaryasi” orqali izdoshlarni jalb qilish qobiliyati edi, deb hisoblanadi. Ikkinchisi shialarning qarshilik ko‘rsatish modellarining yaqinlashuvi va radikal G‘arb mafkurasining butun Eron bo‘ylab tarqalishi bilan bog‘liq. Humayniy boshchiligidagi bu tashviqotlar inqilob muvaffaqiyatining kaliti edi.

Oyatulloh Humayniyning Eron inqilobidagi yetakchiligining xarizmatik mohiyatini to‘liq anglash uchun 1978-1979 yillardagi inqilobga olib kelgan asosiy tarixiy vaqt jadvalini bilish zarur bo‘ladi. Eronda bu sanadan oldingi yillar davomida ko‘plab tarixiy asarlarda to‘xtalib o‘tilgan. Bu yerda uning siyosiy faoliyati haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Humayniy siyosiy faoliyatining tarixiy ildizi 1941-yilda Rizoshoh taxtdan majburan voz kechilganidan keyin boshlangan. Uning o‘rnida, avvalgi hukumat kabi, ulamolarni hurmat qilmagan dunyoviy Eronning millatchi hukumati bor edi. Bu davrgacha Humayniy ko‘p vaqtini muqaddas Qum shahridagi Fayziya madrasasida islom ilmlarining turli jabhalaridan dars berish bilan o‘tkazgan (Din ulamosi). U yerda u o‘zining teokratik ta’limotiga, ayniqsa, hozirgi ijtimoiy-siyosiy voqealarga jalb qilingan ko‘plab talabalar va boshqa din arboblarini jalb qildi. Biroq, u hali ham Oyatulloh Burujirdining shogirdi bo‘lganligi bois, u ulamolarning siyosat bilan faol

shug‘ullanishini ma’qullamas edi . Burujirdiy uchun ulamolarning hukumat siyosati va hukumat amaldorlarini sharhlashi hamda tanqid qilishi kifoya edi, lekin ular boshqaruv apparati tarkibiga kirmasligi kerak edi.[14]

O. Homayniy Burujirdiyga ixlos qo‘ygani uchun uning siyosatdan chetda qolish talabiga bo‘ysundi. Shunga qaramay, Humayniyning hukumatga qarshi chiqishlarining mashhurligi ko‘plab norozi talabalar va siyosiy jihatdan begona ruhoniylar orasida o‘sib borar ekan, u Pahlaviy rejimi uchun potentsial muammo sifatida qaraldi. U ochiq qo‘zg‘olonni yoqlamagan bo‘lsa-da, lekin Fayziya madrasasidagi lavozimidan chetlashtirilib, Mulla Sodiq madrasasida muallimlik qilishga majbur bo‘ldi, chunki bu madrasa  usha davirdagi uning nutqlarini tinglash uchun to‘plangan katta olomonni boshqaradigan joy emas edi.[15] Shoh 1941-yilda taxtdan ag‘darilganidan so‘ng, Humayniy o‘zining eski joyiga qaytib, Fayziya madrasasida muallimlik qiladigan bo‘ldi.

Rizo shoh va yangi dunyoviy hukumat davrida gullab-yashnagan dinga qarshi adabiyotga javoban Humayniy 1943-yilda Oyatulloh Burujiridiyning buyrug‘i bilan “Kashf al-asror” (“Ochilgan sirlar”) kitobini yozib, siyosiy-diniy bahslarga qo‘shildi hamda din va ulamolarga qarshi aytilgan ayblovlarni rad etishni boshlab yubordi.[16]

Garchi bu asar Humayniyning birinchi muhim siyosiy deklaratsiyasini ifodalasa-da, u ochiqdan-ochiq islomiy davlat yoki hozirgi tuzumni ag‘darish tarafdori emas edi. U shu fursatdan foydalanib, dunyoviy hukumatni, ayniqsa, monarxiyani “Xudoning qonuni”da belgilangan davlat me’yoriga mos kelmayotganini tanqid qiladi. U shunday deydi: “Biz hukumat faqih (feqih) qo‘lida bo‘lishi kerak, demaymiz, balki davlat farovonligi uchun Allohning qonuniga muvofiq boshqarilishi kerak, deymiz...” Qolaversa, u bu bilan hukumatni ham tanqid qildi. Shu o‘rinda Uchinchi Reyx Getlerning  asosiy g‘oyalaridan bo‘lgan oriylarning ustunligi haqidagi

---

[14] This position is not peculiar to Ayatollah Burujirdi, but belongs to the Quietist School of Shi'a political thought.

[15] Hamid Algar, Brief Biography oflmam Khomeini www.wandea.org.pl/ayatullahwahhabism. html Retrieved 4/7/2004, Section 3.5 The Fayziya madrasa is a theological law school founded in 1533 and named after its most famous scholar, Mahsin Feyz Kashani. Khomeini would expand the original building complex of the Fayziya after the revolution. Heinz Halm Shi'a Islam: From Religion to Revolution (Princeton: Markus Weiner Publishers, 1999) 128 - 129.

[16] Hamid Algar, trans. and annotated, Islam and Revolution: Writings and Declarations oflmam Khomeini (Berkeley: Mizan Press, 1981) 169.

ta’limotiga yaqinligi ko‘rinadi. “Yuz ming oila nobud bo‘lsa ham, men Polshani tank va nayza bilan bosib olaman” degan uzoqdan ahmoqona maqtagan mana shu gitlercha mentalitet inson aqlining eng zaharli va jirkanch mahsulotlaridan biri edi.

Shubhasiz, Xomeyniy Gitlerning irqiy nazariyasining ajralmas qismi bo‘lgan va natsistlarning Yevropadagi tajovuzi hamda hukmronligini qonuniylashtirish uchun qo‘llanilgan “jamiyat boshqaruvining aristokratik qonuni” bilan diniy tomondan o‘xshash tomonlari mavjud edi. Humayniy, shuningdek, Shariat fiqhining buzilishi kabi monarxiyani ochiq qo‘llab-quvvatlagan islohotchi ruhoniylarga hujum qilish uchun Kashf al-Asrordan foydalangan.[17]

Aslida, ko‘pchilik Humayniy islohot jurnali “Homayun” muharriri Hakamizade tomonidan yozilgan “Asror-i Hezar Solih” (Ming yillik sirlari) nomli risolaga o‘z g‘oyalarini mustahkamlagan deb hisoblaydi. Humayniy yozuvchini ruhoniylar haqida “zaharli” g‘oyalarni tarqatayotgan “aqlsiz qiyshiq odam” deb atagan.

Islohot ulamolari, islom islohotga muhtoj emasligini, balki monarxiya davridagi hukumatni ruhoniylar isloh qilishlari kerakligini aytdi. U monarxiyani Eronda jamoat axloqini buzishda, islomni haqorat qilishda va g‘arb parastligi bilan mamlakatni madaniy xaosga olib borishda aybladi. Buning natijasida islomiy jamiyatni targ‘ib qiluvchi o‘z tarafdorlari yordamida manarxiyani ag‘darib islomiy davlatga asos soldi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bu tarixiy davirda Eron jamiyati uchun ham katta inqilobiy vaziyat yetilgan edi. Chunki tarixan islom ahkomlariga asoslangan mamlaktda bir vaqtning o‘zida g‘arb madaniyatining kirib kelishi Eron xalqi uchun ham inqilobiy rahnamoni qo‘llashga zamin yaratgan edi.

[17] Ervand Abrahamian, Khomeinism: Essays on the Islamic Republic (Berkeley: Univ. of California Press, 1993) 9.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Byrd, Dustin John, "Ayatollah Khomeini and the Islamic Revolution in Iran" (2006). Master’s Theses. 3864. https://scholarworks.wmich.edu/

2. Hamid Algar, trans. and annotated, Islam and Revolution: Writings and Declarations oflmam Khomeini (Berkeley: Mizan Press, 1981)

3. Ervand Abrahamian, Khomeinism: Essays on the Islamic Republic (Berkeley: Univ. of California Press,

# O'SMIR QIZLARDA BULLINGNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Qaimova Gulmira Uchqun qizi**

E-mail: gqaimova@gmail.ru

O'ZMU Psixologiya(faoliyat turlari bo'yicha)

1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Barkamol insonni tarbiyalash azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy hayotining muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni , balki butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari boshlagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishishga undagan.

**Kalit so'zlar:** Zo'ravonlik, tarbiya, oila, fiziologiya,umidsizlik, qo'rquv, aybdorlik, nafrat,jabrlanuvchi, kuzatuvchi, tajovuz, bezorilik.

# PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF BULLING IN TEENAGE GIRLS

**Annotation:** The upbringing of a harmoniously developed person has always been a noble dream of our people, an important requirement and the main goal of social life, an integral part of the spirituality of the nation. This idea has led not only individuals, but entire nations to great progress, inspiring them to great achievements in the field of spirituality and enlightenment.

**Keywords:** Violence, upbringing, family, physiology, despair, fear, guilt, hatred, victim, observer, aggression, hooliganism.

Yoshlarga e'tibor, kelajakka e'tibor demakdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda yangi avlodni o'z hayotiy o'rniga ega, bilimli va yuksak salohiyatli qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan hurmatli yurtboshimiz

Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?” degan savollarga javob beradigan, shunday e’tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi.”[1]

O‘smirlik davrining murakkab davr ekanligi ko‘plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o‘zgaradi. O‘smirlikning asosiy mazmuni uning bolalikdan kattalikka o‘tishidir. Rivojlanishning barcha jabhalari sifat jihatidan qayta qurishga uchraydi, yangi psixologik shakllanishlar vujudga keladi va shakllanadi. Ushbu transformatsiya jarayoni o‘smir bolalarning barcha asosiy shaxsiy xususiyatlarini va shuning uchun ular bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Oila konteksti o‘smirning munosabatlari va barcha faoliyatining shakllanishiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Bulling - bu murakkab va yoqimsiz mavzu, ayniqsa unga duch kelganlar uchun.So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, deyarli har bir o‘smir u yoki bu tarzda tajovuzkor, jabrlanuvchi yoki shunchaki tashqi kuzatuvchi pozitsiyasida zo‘ravonlik holatlariga duch kelgan. Qo‘rquv, aybdorlik, uyat, nochorlik, nafrat, umidsizlik kabi noxush tuyg‘ularni boshdan kechirish ham Bulling bilan bog‘liq bo‘lib, eng achinarlisi shundaki, bu tajribalar juda kam muhokama qilinadi. Bugungi tezkor zamonda voyaga yetmaganlarni ma’naviy tahdidlardan asrash, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish dolzarb vazifa bo‘lib kelmoqda. Shu ma’noda o‘quvchilar orasida uchrab turadigan bulling xususiyatlari sog‘lom tarbiyaviy muhitga soya soluvchi omillardir.

Bulling har qanday yoshda sodir bo‘lishi mumkin, lekin tabiiyki, zo‘ravonlik eng ko‘p sodir bo‘ladigan holatlar mavjud. Bu yosh davri o‘smirlik davri hisoblanadi. Bu yosh davri o‘smirlik davri hisoblanadi. A.V.Petrovskiyning fikriga ko‘ra, o‘smirlik "individuallikni aniqlashning vosita va usullarini izlash bilan tavsiflanadi .Bu borada o‘z do‘stlarida ideal tarzda namoyon bo‘lish qobiliyatini maksimal darajada anglagan holda, o‘smir faol tarjima qilish uchun barcha ichki resurslarini

safarbar qiladi. Uning individualligi uning optimal shaxsiylash- tirilishini ta’minlay oladigan unga mos keladigan shaxslar guruhini izlashni kuchaytiradi".[2]

"O‘smir, birinchi navbatda, o‘zini tengdoshlari guruhiga bog‘laydi, uning a’zolari uning xatti-harakatlarida, xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan har qanday xususiyatlarini qanchalik ma’qullashi yoki rad etishini hisobga oladi".[3 C 480]

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, bulling guruhning barcha a’zolarini qamrab oladi . Pepper va Kreyg (1995) ma’lumotlariga ko‘ra, tengdoshlar zo‘ravonlik holatlarining 95 foizida mavjud. [4 C 257]Ushbu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, bulling tarkibida quyidagi ishtirokchilar ajralib turadi:

1. Bezori, bezori yordamchilar.
2. Jabrlanuvchi.
3. Jabrlanuvchining himoyachilari.
4. Kuzatuvchilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,voyaga yetmaganlarni nazoratsiz hamda qarovsiz qoldirmaslik, buning oldini olishda uzluksiz ta’lim muassasalari va huqu-tartibot organlarining o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish yaxshi samara beradi.Bolaning bo‘sh vaqtini qanday tashkil qilish kerak, u darsdan keyin qayerga borayapti, oila, maktab, mahalla va huquq-tartibot organlari hamkorligida bu masalada qanday ishlar amalga oshirilmoqda kabi savollarning nazariy va amaliy mohiyatini anglab yetish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev: Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega ma’ruzasidan. 25.12.2020.

2.Петровский А.В. Проблема развития личности с позиций социальной психологии // Вопросы психологии. – 1984. – № 4.

3.Овчарова Р.В. Справочная книга Социального педагога. – М.: ТЦ Сфера, 2004. – 480 с

4. Sanders Ch. E., Phye G.D. Bullying: implications for the classroom. – California: Elsiver Academic Press, 2004. – 257 p.

# “ONKOLOGIK GEMATOLOGIK KASALLIKLARGA CHALINGAN BOLALARNI DAVOLASHDA OTA-ONALARNING NOTO‘G‘RI XATTI-HARAKATLARI”

**Qurbonova Gulmira Xamidjon qizi**
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs magistranti
E-mail qurbonovagulmira95@gmail.com

**Annotatsiya**. Maqola hayotbaxsh (onkologik / gematologik ) kasalliklarni davolashda bolalarga hamroh bo‘lgan ota-onalarning noto‘g‘ri xatti-harakatlarining dolzarb muammolarini o‘rganish natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga bag‘ishlangan. Ota-ona xatti-harakatining etishmasligi jiddiy kasalliklarga chalingan bolalarning davolash samaradorligi va o‘limini kamaytirishning sabablaridan biridir. Maqolada tadqiqotning asosiy qiyinchiliklari, ota-onalarning noto‘g‘ri xatti-harakatlarini o‘rganish usullari va yondashuvlari tahlil qilinadi. Ota-ona yetishmasligi bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik omillar tahlil qilinadi. Ota-onalar tomonidan boshdan kechirayotgan qayg‘u va ulardan foydalanadigan nusxa ko‘chirish strategiyalari, shuningdek, bolalarni davolash jarayonida ota-onalarga tibbiy xodimlar bilan aloqa qilish va xabardor qilishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan aloqa etishmasligini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Bolalar onkologiyasi klinikasida ota-ona xatti-harakatlarining mavjud yo‘nalishlari va profilaktika usullarini ko‘rib chiqish / gematologiya  Ko‘p faktorli hodisa sifatida ota-onalarning noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ko‘rib chiqish va uni baholashga kompleks yondashuvni ishlab chiqish ota-onalarning og‘ir kasalliklarga moslashuvini va uzoq va murakkab davolanishni yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar va yo‘llarni ochadi.

**Kalit so‘zlar:** noto‘g‘ri xatti-harakatlar, ota-onalar, onko / gematologik kasalliklarga chalingan bolalar, hayotni xavf ostiga qo‘yadigan kasalliklar

**Abstract**. The article analyzes and summarizes results of studying a priority issue of parental noncompliance during the treatment of children with life-threatening diseases (oncological / hematological ). Parental noncompliance is one of the most important factors influencing treatment efficiency and children’s death rate. It describes the existing methods and approaches, and also major challenges in studying the issue. There isan analysis of social, economic and psychological factors associated with parental noncompliance. The correlation between parental noncompliance, distress experienced by parents and coping strategies they use, as well as the peculiarities of communication and informing parents by medical personnel in the treatment of children are focus of special consideration of this article. The directions for prevention of parental noncompliance in children oncology / hematology clinic are discussed.. The consideration of parents ‘incompetent behavior as a multifactorial phenomenon and the development of an integrated approach to its assessment lead to new opportunities and directions for improvement in parental adaptation to life-threatening children disorders and severe treatment.

**Keywords**: parental noncompliance, parents, children with onco/ hematological illnesses, life-threatening diseases.

Yer yuzida insonlarning salomatligini saqlash, turli kasalliklarning kelib chiqish sabablarini o‘rganish barobarida, mazkur kasalliklarning davosi, bemor shaxsining kasallikdan oldingi va keyingi holati o‘rtasidagi farqlarni aniqlash yuzasidan ko‘plab ahamiyatga molik tadqiqotlar o‘tkazilib kelinmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra jahon miqyosida eng keng tarqalgan kasalliklar qatorida gemotologik kasalliklarning borligi, ushbu kasallik turlarining yildan-yilga ko‘payib borishi natijasida minglab insonlar hayotdan bevaqt ko‘z yummoqda yoki nogiron bo‘lib qolishga duchor bo‘layotgani hech kimga sir emas. Shu o‘rinda mazkur xavfli kasallikka chalinganlarning ko‘p qismi yoshlar va bolalar ekanligi, istiqboldagi tadqiqotlar ahamiyatini yana oshirmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – xalq farovonligi, yurt tinchligi ta’minlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarkib toptirishdan

iboratdir. Shu nuqtayi nazardan koʻplab sohalarda boʻlgani kabi psixologiya, tibbiyot sohasida ham hali oʻz yechimini topmagan koʻplab muammolar borligi mazkur sohalar yuzasidan bir qator vazifalarni amalga oshirishni kelajakda taqozo etadi. Davlatimizda bolalar va oʻsmirlar salomatligi soʻnggi oʻn yilliklar davomida oʻz ahamiyatini yoʻqotmadi. Sogʻliqni saqlash tizimiga Prezidentimiz tomonidan berilayotgan e’tibor va g’amxo’rlik aholi salomatligini muhofaza qilishda, shuningdek, xalqimiz turmush farovonligi oshishida muhim ahamiyat kasb etib, mazkur tizimda tub o’zgarishlar bo’lib, yangilik va izlanishlar sari odim tashlanayotganligi bejiz emas.

Tizimdagi faoliyatlar qatorida sog’lom turmush tarzi bo’yicha olib borilayotgan targ’ibot va tashviqot ishlarining to’g’ri yo’lga qo’yilganligi ham kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etib, bu borada keng jamoatchilik asosida o’tkazilayotgan tadbirlar aholi salomatligini saqlashda, ularning tibbiy savodxonligini oshirishda muhim rol o’ynamoqda. Amaldagi ijobiy ishlar qatorida ayrim kasalliklar dunyo miqyosida global muammoga aylanayotganligi mutaxassislarni tashvishga solmoqda albatta. Ayniqsa, respublikamizda onkologik kasalliklarning oldini olish, to’g’ri tashhis qo’yish va davolash ishlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Barchamizga ma’lumki, 4 fevral – Butunjahon rak kasalliklariga qarshi kurash kuni (World Cancer Day) Xalqaro rakka qarshi uyushma (International Union Against Cancer, UICC) tomonidan 2005 yildan beri har yili respublika miqyosida tadbirlar o’tkazib kelinmoqda. Bu sananing maqsadi – jamoatchilik e’tiborini mazkur global muammoga jalb qilish, hozirgi kunda onkologik kasalliklar qay darajada xavfliligi hamda keng tarqalganligini eslatishdan iborat.

Soʻnggi 30 yil ichida zamonaviy tibbiyotning yutuqlari onkologik / gematologik kabi hayotiy kasalliklarga chalingan bolalarni davolash natijalarini sezilarli darajada yaxshilashga imkon berdi. Shunday qilib, oʻtkir lenfoblastik leykemiya (All) omon qolish bilan bolalar 70-80 % hisoblansa, osteogen sarkoma (OS) boʻlgan bolalarda-60-80 %, Hodgkin (LX) lenfomasi boʻlgan bolalarda 90% dan ortiq [1].Shu bilan birga, bolalardagi hayotni xavf ostiga qoʻyadigan kasalliklarni davolashda ijobiy natijaga erishish tibbiy xodimlar va ota-onalarning yaqin va uzluksiz hamkorligini,

ota-onalarning davolanishning barcha bosqichlarida tibbiy maqsadlar va tavsiyalarning barcha turlariga nisbatan faol xatti-harakatlarini talab qiladi. Onkologik, gematologik, kasalliklarga chalingan bolalarni davolashda uning yaqinlari (ota-onasi /vasiysi) tomonidan bajariladigan xatti-harakatlarning mosligi bolaning holatini nazorat qilish, dori-darmon va  gigiyenaga rioya qilishni, dietani va davolash rejimini o‘z ichiga oladi, davolash, muntazam klinik tashrif, tibbiy tadbirlar uchun o‘z vaqtida kasalxonaga borish, bolaning manfaatlari uchun muhim qarorlar qabul qilish, va hokazo [2-5]. Shu bilan birga, onkologik gematologik kasalliklarga chalingan bolalarning ota-onalarida noto‘g‘ri xatti-harakatlar (tavsiyalarni muntazam ravishda bajarmaslik va hatto davolanishdan bosh tortish) hollari kam uchraydi; turli tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ularning tarqalishi 2 dan 52% gacha, Ota-onalarning etishmasligi bolalar,o‘smirlarni davolash uchun jiddiy tahdiddir: nafaqat terapiyaning samaradorligini pasaytiradi, balki kasallikning qaytalanishiga va bolalarning o‘limiga olib keladi[1,3]. Ingliz tadqiqotchilari, kasallikning davolashda muvaffaqiyatsizliklarga uchramasliklari uchun tibbiy retseplarga 95% amal qilish kerak deb hisoblashadi.[5]. Ota-onalarning eng muhim xatti-harakatlari bolani davolashda remissiya hali erishilmagan paytga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, ambulatory davolash bosqichida,  Bolalar onkologiyasida psixologik tadqiqotlar bo‘yicha xalqaro qo‘mita (BYuR) ota-onalarning onkologik kasalliklarga chalingan bolalar o‘smirlardagi o‘limning asosiy sabablaridan biri sifatida ota-onalarning etishmovchiligi muammosini ko‘rib chiqadi. Bolalar onkologiyasi  gematologiya klinikasi uchun ota-onalarning noto‘g‘ri xatti-harakatlari muammosiga qaramasdan, ushbu mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotlar juda kam. Bu bir qator metodologik qiyinchiliklarga, shu jumladan, "kompilyatsiya" atamasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlariga va uni baholash usullarini tanlashga bog‘liq. Turli tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish, ishlatiladigan metodologiyalar va tadqiqot usullari o‘rtasidagi farqni hisobga olgan holda, ko‘pincha qiyinlashadi Ota-onalarning qayg‘usi ularning ota-onasining rolini bajarishiga to‘sqinlik qiladi. Aybdorlik va ilojsizlik hissi ota-onaning farzandini himoya qilish qobiliyatini yo‘qotishi natijasida yuzaga keladi. Natijada, ota-onalar, bolaning sevgisini yo‘qotishdan yoki uni xafa

qilishdan qo‘rqib, muhim tartiblardan voz kechishlari mumkin. Onkologik va gematologik kasaliklar bilan xastalangan bollarning ota-onalari eng birinchi yo‘l qo‘yadigan xatolaridan biri bu bolalaridan avvalroq tushkinlikga tushishlari bola o‘z kasalliklarini anglamasdan turib ota-onasining tushkin xolatidan kelib chiqgan holda kasligi haqida salbiy fikirlarni yig‘a boshlaydi. Ota-onalar bir necha oy davomida bolalarini kasal xolatda ko‘rishi, ota-onalarning kasallik va bolaning davolanishiga bog‘liq bo‘lgan barcha tibbiy ko‘rsatmalarga rioya qilish zarurligi haqida eslatmalarni unitish yoki ulardan qochishi davolash jarayonida tibbiyot xodimlari va ota-onalarning o‘zaro munosabatlarining mustahkamligini buzishi mumkin. Ota-onalarning ruhiy hissiy holati bolalarning sog‘lig‘i haqida qaror qabul qilish, shifokor tavsiyalarni bajarishning takroriyligi va aniqligi, shifokorlarning ishtiroki, bolalar va ota-ona munosabatlari va muloqotga ta’sir qilishi mumkin. Boshqa turli xil kasalliklarga uchragan bolalarning ota-onalaridan,onkologik gematologik kasaliklarga chalingan bolalarning ota-onalari bilan muloqat qilish biroz qiyinlashadi ularning tibbiyot hodimlarining saviyasining pastligi xaqida ular bilan qilgan salbiy munosabatlari farzandlariga bo‘lgan e’tiborni kamaytirishi mumkin.

Ota-onalarning ijtimoiy-psixologik va shaxsiy xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan xatolari ham mavjud; ota-onalarning yoshi, ularning ta’lim darajasi pastligi, ota-onalarning og‘ir hissiy holati[3, 6, 10-13, 16]. Noto‘g‘ri xatti-harakatlar ota-onalarning tajribalari bilan chambarchas bog‘liq. Bolaning jiddiy kasalligi va murakkab davolash, shubhasiz, oilalar uchun haddan tashqari stress, falokat, bolaning hayotiga sezilarli yoki "ko‘rinmas" xavf tug‘diradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki hayotiy onkologik va gemotologik kasalliklar bilan xastalangan bolalarning ota-onalarining xatti harakatlari ularning kasalliklarini davolashda eng muhim omillardan hisoblanadi. Ota-onalarning hissiy-ruhiy holati bemor bolalarning psixologiyasiga ham yuqori darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun onkologik gemotologik kasaliklar bilan xastalangan bolalar ota-onalaridan hayotga yuqori ishonch, sabrbardosh va kurashuvchanlik kabi xislatlarni talab qiladi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Варфоломеева С.Р., Добренькое К.В., Качанов Д.Ю., Инюшкина Е.В., Шаманская Т.В., Цейтлин Г.Я. Анализ причин отказов от лечения в детской онкологии // Педиатрия. 2008. Т. 87. № 2. С. 127-130.

2. Никольская Н.С., Стефаненко Е.А., Хаин А.Е., Клипинина Н.В., Евдокимова М.А., Орлов А.Б., Смирнов А.Ю. Особенности представлений об информировании о заболевании и лечении у врачей, родителей/опекунов в детской гематологии, онкологии и иммунологии // Российский журнал детской гематологии и онкологии. 2014. № 2. С. 91-92.

3. Хаин А.Е., Никольская Н.С., Стефаненко Е.А., Клипинина Н.В. Информационные потребности пациентов подросткового возраста и их родителей настационарном этапе лечения в детской онкологии/гематологии // Российский журнал детской гематологии и онкологии. 2015. Т. 2. № 4. С. 58-64.

4. Клипинина Н.В., Хаин А.Е., Кудрявицкий А.Р. Проблема информирования о заболевании и лечении пациентов и их родителей/семей в детской онкологии/гематологии // Консультативная психология и психотерапия. 2014. № 1. С. 127-155.

# TA’LIM SIFATINI BAHOLASH SOHASIDAGI XALQARO TADQIQOTLARNING MUHIM JIHATLARI

**Rasulova Gulnozaxon Azamovna**

p.f..f.d. (PhD), Qo‘qon davlat pedagogika instituti,

Farg‘ona, O‘zbekiston

**Annotatsiya**: Maqolada ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlardan PISA tadqiqoti va Singapur matematikasining muhim jihatlari yoritilgan.

**Аннотация**: В статье освещаются важные аспекты исследований PISA и Сингапурской математики из международных исследований в области оценки качества образования.

**Abstract:**The article highlights important aspects of PISA research and Singaporean mathematics from international research in the field of education quality assessment.

**Kalit so‘zlar:** Pisa tadqiqoti, Singapur matematikasi, “4+2”, modellashtirish

**Ключевые слова**: исследование PISA, Сингапурская математика, «4+2», моделирование.

**Keywords:** PISA research, Singapore mathematics, “4 + 2”, modeling

Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi [1].

PISA (Programme for International Student Assessment) o‘quvchilar bilimini baholash xalqaro dasturi 2000 yildan boshlangan va har uch yilda o‘tkazilib kelinadi

Bunga ko‘ra, ishtirokchi mamlakatlar o‘quvchilarining bilim darajalari, ta’lim tizimidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish va ularning amalga oshirish uchun to‘siqlarni aniqlash, natijalarning o‘zgarish dinamikasini kuzatish va tanqidiy tahlil qilish vazifalari belgilangan [2].

Tadqiqot o‘quvchilar hayot sharoitida o‘qitish jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyatini baholashga qaratilgan. SHu bilan birga, tadqiqot ishtirokchi mamlakatlar o‘quvchilarining natijalaridagi farqlarni tushuntiruvchi omillarni o‘rganadi va tadqiqot natijalariga statistik ishlov berish natijasida har bir o‘quvchi 1000 balli tizimda quyidagi me’zonlar bo‘yicha baholanadi:

- kundalik turmushda yuzaga keladigan real muammolarni aniqlash va ularni matematikadan foydalanib hal qilish;
- muammolarni matematik tilda ifodalash;
- muammolarni matematik bilimlar va usullarni qo‘llash orqali hal qilish;
- ishlatilgan usullarni tahlil qilish va muammoning yechimini tushuntirish;
- hal etish natijalarini shakllantirish va qayd etish.

Asosan matematika imtihonlarida o‘quvchilar PISA topshiriqlariga o‘xshash masalalarni yechish tajribasining yetishmasligi, topshiriqlar uzundan-uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ulardagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlay olmasligi, yechim topilgandan so‘ng uni yana real sharoit bilan bog‘lab baholash tajribasining etishmasligi, muayyan turdagi masalalarni ma’lum algoritmlar asosida yechishga o‘rganib qolganligi, darslikdagi masalalar sof matematik masalaning tavsifidan iborat bo‘lib, odatda ularning mazmuni hayotdagi real vaziyatlardan ancha uzoqda bo‘lishi kabi muammolarga duch kelishadi. Shuning uchun PISA tadqiqotlaridan kelib chiqib, o‘quvchilar o‘zlashtirilgan bilimlar asosida amaliy mashqlarni, o‘quv topshiriqlarini bajara olishi, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni maktabdan tashqaridagi hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi; ular ustida fikr yurita olishi, ya’ni mantiqiy fikrlay olishi mumkin.

Barchaga ma’lumki, 1995 yildan boshlab singapurlik o‘quvchilar matematikadan o‘tkazilayotgan turli xalqaro olimpiadalar g‘olibi bo‘lib kelishmoqda. Chunki, Singapur matematikasining asosiy xususiyatlaridan biri katta hajmdagi o‘quv

materialini o'rganishga emas, balki kiritilayotgan matematik atama va faktlarni **tushunish chuqurligi**ga e'tibor beriladi. Odatdagi, xususan bizning maktab matematika fani o'quv dasturlarimizda buning aksi: dasturlarimiz o'quv yuklamasi juda katta, o'rganilishi kerak bo'lgan mavzular juda ko'p, vaqtimiz esa cheklangan. Buning oqibatida bu mavzularni chuqur o'rganish imkoniyatlari cheklangan. Ikkinchidan ta'lim jarayoni muayyan **amaliy tajriba**dan boshlanadi va abstrakt tushunchalarga tomon boriladi. Tushunchalarni o'rganish uch bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqich (enactive stage)da o'quvchilar kiritilayotgan tushunchaga doir turli faoliyat o'yinlarini o'ynaydilar, tushunchaga doir turli moddiy narsalarni (sanoq cho'plari, kubchalar, qog'ozlar va plastilindan yasalgan turli shakllar va predmetlar hamda boshqa turli maxsus o'quv qurollari)ni qo'llari bilan ushlab ko'radilar yoki ulardan turli modellarni yasaydilar. Ikkinchi bosqich (iconic stage)da yangi tushunchani timsollar yordamida ifodalaydilar. Ularni turli rasmlarda, diagramma yoki chizmalarda tasvirlaydilar. SHundan keyingina uchinchi bosqich (symbolic stage)ga, yangi tushunchaga oid abstrakt ta'rif, matematik timsol va belgilashlarga o'tiladi. Boshqacha qilib aytganda matematik tushunchalar bilan tanishish ko'rgazmali misoldan boshlanadi, uning asosida abstrakt tushunchani "ushlash" va "ko'rish" imkoniyati beriladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim jarayonini **"4+2"** asosida olib borilishi ham buning yaqqol misolidir. Ya'ni, talabalar 4 kun o'zlashtirgan nazariy bilimlarini 2 kun amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalariga ega bolishlari lozim. Ta'limning amaliy tajribadan abstrakt tushunchalarga tomon borishi o'quvchilarda har bir mavzu bo'yicha muayyan assotsiatsiyalar (yorqin, xotirada chuqur va mustahkam o'rnashuvchi taassurotlar) hosil qilinadi. Bu taassurotlar eslanganda mavzuning turli jihatlari yodga tushishi ta'minlanadi.

Ta'lim jarayonining boshidan amaliy ishga yo'naltirilganligi u yoki bu matematik tushunchaning nima sababdan o'rganilayotganligi va uning hayotiy vaziyatlarda qachon va qaerda kerak bo'lishini oldindan bilishga va ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani (qiziqishni) oshiradi. Bu esa, matematika fani hayotda kerakli va foydali bo'lishi bilan birga, uning jozibador fan ekanligini ham ta'minlaydi.

Bundan tashqari, **modellashtirish**ga katta e'tibor beriladi, ya'ni berilgan matematik masala sharti ko'rgazmali modellashtiriladi va qulay ravishda foydalaniladi. Hamkorlikda o'rganish va **o'zaro fikr almashish**ga ham alohida e'tibor beriladi, bunda masallalarni yechishda o'quvchilarga matematik tushunchalarni va masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishi, ularni birgalikda muhokama qilish va boshqalar fikrini ham tinglash imkoniyati yaratiladi. Natijada o'quvchilar tushunchani yaxshiroq o'zlashtirishadi, matematika tilidan to'g'ri foydalanishga o'rganishadi, ba'zi hollarda u yoki bu masalaning bir necha yechimi bo'lishi mumkinligini tushunib yetishadi. Bular esa o'z navbatida o'quvchilarni doimiy izlanishga, fikr yuritishga undaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi PQ-997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. Chiqish ma'lumotlari.

2. Educating teachers of science, mathematics, and technology : new practices for the new millennium / Committee on Science and Mathematics. Copyright 2001 by the National Academy of Sciences. Constitution Avenue, N.W. Washington.

# AHOLINING TURMUSH DARAJASINI BAHOLASH VA IQTISODIY O'SISH

**Tursunov Farxod Baxodir o'g'li**
Termiz davlat universiteti 1 – bosqich magistranti
farxoddd1007@gmail.com

Bugungi kunda "Turmush darajasi" atamasini keying yillarda ko'p qo'llanilishi bejizga emas. Bu haqida ham ko'plab fikr mulohazalar yuritish mumkin. Tabiiyki shunga mos ba'zi savollar tug'ilishi mumkin. aholining turmush darajasi va uning holati qanday o'rganiladi ? bugungu kunda ro'y berayotgan o'zgarishlar buni qanday baholaydi? Aholining turmush darajasini yaxshilash uchun yana qanday ishlar qilish mumkin? Shu va shu kabi savollar tug'ilishi tabiiy. Bu savollarga quyidagi fikr mulohazalarni bildirish mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti "turmush darajasi" konsepsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga katta hissa qo'shdi. 1960 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ishchi guruhi global turmush darajasi va o'lchov tendentsiyalari bo'yicha hisobot tayyorladi. Bu keng qamrovli tizim yaratish yo'lidagi birinchi qadam edi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro Standartlar Standartlarining so'nggi versiyasi 1978 yilda ishlab chiqilgan va 12 ta asosiy yo'nalishni qamrab oladi.

Ehtiyojmand oilalarga moddiy jihatdan qo'llab quvvatlash, aholini turli qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, yoshlar bandligini ta'minlash uchun bugungi kunda jamiyatning turli bo'g'inlari birgalikda harakat qilmoqda. Jumaladan, O'zbekiston Respublikasining 2020 – yil 28 -apreldagi O'RQ 642 – sonli qonunining II – bobidagi " ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralarini ko'rish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko'maklashish; aholi bandligi sohasida zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda

mehnatga haq to'lash mexanizmlarini takomillashtirish;" [18] shu va shu kabi yo'nalishlarni o'rin olgani, aholi bandligi sohasinidagi ishlar davlat siyosati darajasiga chiqqanligini isbotidir.

Ayniqsa so'nggi yillarda nafaqat mamlakatimizda balki butun dunyoda o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan koronavirus pandemiyasi butun insoniyat uchun katta sinov va shu bilan birga ulkan tajribalar berdi. Davlatimiz rahbari tomonidan bu kunlar o'tkinchi va sinovli kunlar ekanligi, bunday kunlarda bir – birimizni qo'llab quvvatlab turishim kerakli aytildi. Shu jumladan prezidentimizning 2020 – yil 30 – iyuldagi 6038 – sonli farmonidagi " moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarning ro'yxatlariga ("temir daftar") kiritilgan oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun "Saxovat va ko'mak" jamg'armasining hududiy bo'limlariga 200 milliard so'm; Jamiyatimizda tinchlik, do'stlik, mehr-oqibat va hamjihatlik g'oyalarini keng targ'ib etib kelayotgan diniy sohada xizmat qilayotgan vakillarni moddiy rag'batlantirish hamda joylarda xayru saxovat, muruvvat borasida amalga oshirilayotgan ishlarni, jaholatga qarshi ma'rifat ruhidagi keng qamrovli tadbirlarni yangi bosqichga ko'tarish uchun O'zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi "Vaqf" xayriya jamoat fondiga 150 milliard so'm mablag' ajratilsin; "[19] mana shu bandlaridan korinib turibdiki davlatimiz rahbari bunday sinovli kunlarda ham o'z xaqlini unutmay, ularni doim qo'llab quvvatlab turdi.

"Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga muvofiq, "Davlat statistika qo'mitasi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar hamda ularning natijalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, qo'mita yuridik va jismoniy shaxslardan aholi turmush darajasi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni to'plashda statistik hisobot shakllari yoki turli kuzatishlar orqali belgilangan tartibda ma'lumotlarni olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan".[20]

---

[18] O'zbekiston Respublikasining 2020 – yil 28 – apreldai "Aholi bandligi to'g'risida"gi 642 – sonli qonuni. www.lex.uz
[19] O'zbekiston Respublikasining 2020 – yil 30 – iyuldagi " koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 6038 – sonli qonuni. www.lex.uz
[20] O'zbekiston Respublikasining 2002 – yil 12 – dekabrdagi "Davlat statistikasi to'g'risida"gi 441 - sonli qonuni. www.lex.uz

" Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020-yil uchun dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, aholi daromadlarining yalpi daromadlari ulushi 71,5 foizni tashkil etadi, shundan 69,3 foizi mehnat faoliyatidan, 2,1 foizi esa shaxsiy iste'moldan tushadigan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi.

Agar MDH davlatlari aholisi daromadlari tarkibiga nazar tashlasak, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasida yollanma ishchilarning daromadlari 55-69 foiz, Qirg'izistonda 40 foizga yaqin, O'zbekistonda 28,8 foizni tashkil etadi. %. Mol-mulkdan tushgan daromadlar 3,0 foizni, transfertlardan tushgan daromadlar 25,5 foizni tashkil etdi."

Aholi turmush darajasini yanada oshirish uchun qilinayotgan ishlarni prezidentimizning 2020 -yil 29 – dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasida ham bilish mumkin. " Tadbirkorlikni keng qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'plab imtiyoz va yengilliklar berildi. Tadbirkorlik sub'yektlariga 100 trillion so'm yoki 2016 yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko'p kreditlar ajratildi; Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha mutlaqo yangi - "temir daftar" tizimi joriy etildi. Qisqa muddatda bu tizim orqali 527 ming fuqaroning bandligi ta'minlandi; Dehqon xo'jaligi va tomorqa yer egalariga 300 milliard so'm imtiyozli kredit va subsidiya ajratilgani ham qishloq aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda yangi yo'nalishga aylandi;" [21]

Yana bir jihatni ham aytish kerakki bunday imkoniyatlarning yaratilishi, aholining shaxsiy biznesini rivojlanishiga ham zamin yaratdi. " Har bir oila tadbirkor" , " Yosh tadbirkor" kabi davlat dasturlari o'zining yuqori natijasini berdi. Bu esa birgina shu oilaning o'zini iqtisodiy o'sishi bilan cheklanmay, yon atrofdagi insonlarni ham shu faoliyatga undadi. Har bir oila o'z yeridan, o'z tajribasi va imkoniyatlaridan unumli foydalanib, o'zini – o'zi moliyaviy jihatdan ehtiyojlarini qondira boshladi.

" Aholi jon boshiga daromad umumiy yalpi daromadni doimiy yashovchilarning o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra,

[21] O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020 – yil 29 – dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasi. www.president.uz

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida mamlakatimizda doimiy yashovchilarning o‘rtacha yillik soni 34232,1 ming kishini tashkil etdi. Shu davrda aholining jami daromadlari 401,5 trillion so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan real o‘sish 2,6 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga o‘rtacha yalpi daromad 11,7 million so‘mni tashkil etib, real o‘sish 0,7 foizni tashkil etdi. So‘rov natijalariga ko‘ra, aholi daromadlarining o‘sishi va aholi turmush farovonligining yuksalishi natijasida nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar iste’moli bilan birga umumiy iste’mol xarajatlarida oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish ulushi barqarorlashdi. 2020-yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko‘rsatkichlarni 2000-yil ma’lumotlari bilan solishtiradigan bo‘lsak, oziq-ovqat mahsulotlariga 61,4 foizdan 48,1 foizga, nooziq-ovqat mahsulotlariga 25,8 foizdan 32,8 foizga, xizmatlarga 12,8 foizga kamayganini ko‘rishimiz mumkin. 19,1 foizga oshdi.” [22] Bu ko‘rsatkichlar aholining turmush darajasini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida  shuni aytish mumkinki, bugungi jamiyatimizda aholini har sohada qo‘llab quvvatlash, ularni yuqori turmush darajasiga olib chiqish uchun islohotlar bosqichma – bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. Bu o‘z navbatida yaqin kelajakda ham yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy – ijtimoiy muammolarni yengishga yordam beribgina qolmay, bunday muammolarga uchrash holatini ham uzoqlashtiradi. Yuqoridagi raqamlardan ham ma’lumki yaqin kelajakda bu islohotlar va amaliy ishlar shu darajada davom etsa, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy holatlar mintaqad ancha yuqori darajaga yetib boradi.

[22] Davlat statistikasi qo’mitasi boshqarmasi boshlig’i U. Madaminov hisoboti. 2021 – yil 3- mart. Yangi O’zbekiston nashri. www.yuz.uz

# SHO'R SUVNI TUZSIZLANTIRISH JARAYONI UCHUN SUVNING TARKIBINI ANALIZ QILISH

Tayanch doktorant: **J.A. Eshbobayev,**
bakalavr: **O'ng'arov.S**

Yer yuzida mavjud suvlarning atigi 2.5 % ni istemol qilishga yaroqli bo'lgan suvlar tashkil qiladi. Shu chuchuk suvlarning 68.7 % ni muzliklar(erishi mumkin bo'lgan), 30.1 % ni yer osti suvlari, 0.8 % abadiy muzliklar(erimaydigan), atigi 0.4 % ni esa yer usti(kullar, daryolar va hokozo) va atmosferadagi suvlar tashkil qiladi. Bugungi kunga kelib yer yuzi aholisining oshishi, sanoatning rivojlanishi, iqlim o'zgarishi kabi omillar sabab chuchuk suvga bo'lgan talabning oritishi bilan birgalikda chuchuk suv manbalari keskin kamayib bormoqda.

Suvga bo'lgan talabning ortishi va suv ta'minotining qisqarishi dunyoning aksariyat mintaqalarida suv tanqisligini yanada kuchaytirmoqda. Suv tanqis hududlarda yog'ingarchilik va daryo oqimiga asoslangan an'anaviy yondashuvlar endi inson ehtiyojlarini qondirish uchun etarli emas. Tuzsizlantirilgan suv kabi noan'anaviy suv resurslari suvga bo'lgan talab va ta'minot tanqisligini qisqartirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda. Shu sababli butun dunyoda ocean suvlari va tarkibida tuz, boshqa qattiq minerallar bo'lgan suvlarni qayta ishlash texnologiyalari taklif qilinmoqda.

Suvni tozalashdan(tuzsizlantirishdan) avval suv tarkibini yaxshilab o'rganish talab qilinadi. Geografik joylashuvga qarab suvlarning tarkibi ham turlicha bo'ladi. Shuning uchun suv tozalash texnologiyasini taklif qilishdan oldin suvning tarkibi analiz qilinadi va suv tarkibidagi moddalarning miqdori hamda turiga qarab suvni tozalash texnologiyasi va usuli taklif qilinadi.

Ushbu ishda Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanidagi Qirqquloch MFY hududidan o'tgan zaxkash suvi namuna sifatida olindi va Yuqori samarali energiya

dispersli rentgen floresan spektrometri(Yaponiya, Rigaku NEX CG EDXRF Analyzer with Polarization in set - 9022 19 000 0) yordamida element analiz qilindi.

Namuna sifatida 10 litr suv olib, laboratoriya sharoitida bug'langandan so'ng qattiq minerallar ajratilib, sho'r suv o'lchanganda har litr sho'r suvda 3-3.5 gramm sho'r suv borligi aniqlangan. Keyin ajratib olingan qattiq minerallar yuqorida qayd etilgan qurilmada tahlil qilindi. X-nurli floresan spektrometr yordamida sho'r suvning kimyoviy tarkibi 1-jadvalda ko'rsatilgan. Ushbu qurilma yordamida olingan natijalar sho'r suv asosan 21 elementdan iborat ekanligini ko'rsatdi, ulardan eng katta qiymatlari kaltsiy (Ca) 16%, oltingugurt (S). ) 15,4%, xlor (Cl) 4,76% va magniy (Mg) 2,49%. shakllanadi.

1-jadval

**Ajratilgan sho'r suvning kimyoviy tarkibi**

| Kimyoviy tarkibi. massa. % | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Cl | Br | Mg | Si | S | K | Ca | Cr | Mn | Fe |
| 4.76 | 0.0054 | 2.49 | 0.426 | 15.4 | 0.382 | 16.0 | 0.0012 | 0.0117 | 0.0114 |
| Zn | Rb | Sr | Zr | Ag | Sn | Ta | Tb | Dy | Cu |
| 0.0479 | 0.0006 | 0.329 | 0.185 | 0.0011 | 0.0018 | 0.0019 | 0.0027 | 0.0058 | 0.0030 |




***Rasm-1. Ajratilgan sho'r suvning rentgen-fluoresan spektrlari.***

**Xulosa**

Ushbu tadqiqotda tanlangan hududdagi sho'r suv laboratoriya sharoitida bug'langan va suvdagi qattiq minerallar ajratilgan. O'lchangan qattiq minerallar tarkibida bir litr sho'r suvda 3-3.5 gramm atrofida turli tuzlar borligi aniqlangan.

Keyin sho'r suv tarkibi yuqorida aytilgan qurilmada tahlil qilindi va kislorod (O), natriy (Na), magniy (Mg), kremniy (Si), oltingugurt (S), xlor (Cl), kaliy (K), kaltsiy (Ca) borligi aniqlandi. Olingan barcha ma'lumotlardan shunday xulosaga keldikki, suvda juda ko'p tuz mavjud va suv hech qanday iste'mol qilish uchun mos emas. Shuningdek, teskari osmos usuli bu suvni suv tarkibidagi moddalar asosida tozalashning eng maqbul usuli ekanligi haqida xulosa qilindi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Bellie Sivakumar (2011) Water crisis: From conflict to cooperation—an overview, Hydrological Sciences Journal, 56:4, 531-552, DOI: 10.1080/02626667.2011.580747.
2. Mojibul Sajjad , Mohammad G. Rasul, "Simulation and Optimization of Solar Desalination Plant Using Aspen Plus Simulation Software", 6th BSME International Conference on Thermal Engineering (ICTE 2014)
3. Buros, OK 1990, The ABC's of Desalting, International Desalination Association, Massachusetts 'Case History: Tapping the Oceans' 2008, The Economist –Technology Quarterly, viewed 23 October 2013, http://www.economist.com/node/11484059.
4. Asem Zino. "Water Desalination" , Udemy course, 2020
5. Wenjing Huanga, Weili Duan, Yaning Chen,  "Rapidly declining surface and terrestrial water resources in Central Asia driven by socio-economic and climatic changes", Science of the Total Environment (2021)
6. Abatzoglou, J.T., Dobrowski, S.Z., Parks, S.A., Hegewisch, K.C., 2018. TerraClimate, a highresolution global dataset of monthly climate and climatic water balance from 1958–2015. Sci. Data 5, 170191. https://doi.org/10.1038/sdata.2017.191.

# THE WAYS OF MAKING METAFORA OF SYNTAX UNITS (ON THE EXAMPLE OF SHAVKAT RAHMON’S WORK)

**Durdona Yunusova Axtamovna**
Teacher at the Samarkand Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Education
durdonayunusova3@gmail.com

**Abstract.** The article discusses the origin of metaphor in the communication system, its semantic nature, the phenomenon of metaphorization, metaphor and adjectivalization. Shavkat Rahmon’s poetry also analyzes the linguistic possibilities and syntactic-stylistic relations of metaphor formation.

**Keywords:** metaphorization, lexical meaning, ontological possibility, conversion, adjectival, syntactic-stylistic relations, context.

Metaphor is one of the main ways to know, to express, to name and classify a being, to express speech effectively, to color it. Metaphorization, on the other hand, does not seek and create a new means of expression in language, but imposes new multifaceted tasks and responsibilities on existing words and phrases based on their ontological capabilities, based on the law of austerity, similarity and coherence of existing things and events.

Metaphor originated in rhetoric in the ancient world in accordance with the task of the effectiveness and creativity of speech, and conquered all areas of the intellectual world of mankind. The whole power of language is embodied in metaphor. Even the most powerful means of imagery rely on metaphor. According to H. Otegi-i-Gasset, “metaphor is an invaluable tool of thought, a form of scientific thinking… metaphor is the copying of expressions.

The metaphor that emerges in a communication system involves a number of factors, such as the communication itself: simulated and simulated objects; speaker

and listener; communication situation; communication environment; communication intensity; time; place. The intellectual quality of the speaker plays an important role in communication. As a result of his mental capacity, he sees the balance and similarity between one type of thing and event and another type of thing and event. By means of this he finds a qualitative similarity between them. Finding internal similarities between seemingly completely different phenomena, and naming one after another on this basis, is the result of a high intellectual potential" [Ortega-i-Gasset, 1990: 68].

There are cases when the transformation of metaphorical meaning into a metaphorical approach. L. A. Bulakhovsky explained the metaphor as follows: "... is the shift of the name to the sign" [Bulakhovsky, 1954: 52]. This sign can also be related to the characteristics, appearance, function, etc. of nouns. That is why some linguists, often literary critics, confuse metaphor with symbol-based forms of conversion.Character-based conversions are words that belong to the category of adjectives. In Turkish, it is a phenomenon to call important signs of an object or reality by the name of that thing or reality. As a result of this phenomenon, there are cases when the metaphor is confused with the adjectival words belonging to the category of nouns.

Here we will analyze the example of I.Sultanov, a prominent theorist of Uzbek literature, Doctor of Philology, for a metaphor: steel wrist, silk hair. The author wants to show that the words steel and silk in these compounds are metaphors. But there was no semantic change in the words steel, silk, but adjustment.

That is, because the nominative is similar to the nominal, the name change is a figurative meaning. This means that the objects of metaphor, both basic and figurative, are in two independent states. But there are some similarities between them.

This is not the case with the adjectives that occur in the words 'steel'and 'silk'They used to mean the name of things. Then they began to express own character. That is, as in the preface, it no longer represents a sign similar to the sign

of its object, but only the sign of its own object. You may see adectivization in main word where it conveys the sign of its task.

For example, the main place, the main part. The main word in these combinations also serves as an adjective of place, part words, with the expression of the object of the lexical meaning of the word "head". Similarly, in 'steel wrist' and 'silk hair'combinations, the words steel and silk have served as adjectives through their symbolic meanings.

So, these words have a function of the category of quality. Whatever the basic meaning of the metaphor, the figurative meaning must belong to that category. It is possible to pay attention to both meanings (the base and the subject) of the metaphor which occurs in the preface. In adjustment, we see that words can be qualitative. They do not have a new meaning, but the meaning does not change, they express their object and act as an adjective through its sign. Thus, there is no common ground between metaphor and adjectivalism [Mirtojiev, 1984: 74].

A mixture of metaphor and adjectivalism can be found in both Uzbek literature and linguistics. The following is an example of a metaphor given by Y. Pinkhasov: keywords in the combination of main parts [Pinkhasov, 1960: 14]. Prof. Example given by S.Usmanov: silver air – silver, in flower garden compounds, silver in flower garden compounds, flower words [Usmanov, 1964: 35]. L. Abdullayeva Indicates that words such as fox, scorpion, bear, lion, dog, snake come as a function of quality [Abdullayeva, 1965: 63]. The solution to such disputes can be found in the analysis of literary texts.

In particular, the role of metaphor in the poetry of Shavkat Rahmon in Uzbek literature is unique. When analyzing the linguistic possibilities of metaphor formation, of course, syntactic relationships must be taken into account. Any metaphor is syntactically subordinated to a particular piece and is realized by defining or interpreting it. This, of course, depends on the level of perception of the creator. Poetry, in general, is a literary text, in fact, a view of the artist's understanding of the world.

Words cannot express metaphors or stylistic meanings until they enter into a syntactic relationship. However, as an exception, Shavkat Rahmon’s work contains metaphors in which mothers are resembled to the sun. Such metaphors for the mother are used only by the determiner, and the determiner is not involved.

*“Ayam Oftob Mamajon karvon iziga*
*Go‘zallashib ketardi borliq*
*Shahrixondan o‘tganda Oftob,*
*to‘kilardi kulgan chog‘i dur,*
*nur uynardi ko‘zlarida sof...*

*Uni ko‘rib to‘xtardi suvlar,*
*ketolmasdi qushlar poyidan,*
*majnuntollar ko‘tarardi bosh*
*Shahrixonning eski soyidan.”*

The word "head" is actually applied to a person, but it also has a figurative meaning based on the analogy, in addition to the fact that different parts of a person are directly in the sentence, without being defined in different context can represent a new meaning. In the following verses, there is another type of metaphor related to the context. There is, as usual, the determinant is not a definite relation, but another syntactic phenomenon creates a metaphor

*“Endi uning sochlari kumush,*
*oq inakday qo‘llari qadoq.*
*Ko‘zlarida limmo-lim kadar*
*bag‘ri dog‘li, yuragi qadoq.”*

In fact, the word “silver” is a metal, a chemical element, but its color is usually applied to the snow (Silver Winter). However, in the verses, “silver hair” is

syntactically used in the form of a sentence in relation to the mother, to convey the meaning of old age, a person who suffers a lot. The descriptive-definite relationship is often used in the form of a phrase, but this is not the case. These verses can be considered as a new metaphor. It is also noteworthy that in one of the paragraphs, the word itself has a figurative meaning of “swollen hands” and a similar meaning of the word “swollen heart” In Shavkat Rahmon’s poem “HAMAL” syntactic constructions also form a metaphor. It should be noted that in this case, the predicate is mainly based on the similarity of the sentence. In Sh.Rahmon’s poetry there are relatively many similarities of verbs:

*“Erib bitdi poyonsiz qorlar,*
*yana ko‘hna zamin tulladi.*
*Vodiydagi ulkan o‘riklar*
*bir kechada oppoq gulladi.*

*Oq bulutlar yerga qo‘ndimi,*
*mo‘jizalar bo‘ldimi sodir?*
*Oh, naqadar ajoyib tunda*
*oq mash’ala ekilgan vodiy.”*

It is clear that the highlighted passages are based on similarities, not on their meaning. “Jumping” animal-specific, “landing” bird-specific, and “planting” plant-specific movements are applied to the ground, clouds, and valley based on similarities. Sometimes the syntactic relations of the case are also involved in the formation of specific patterns of metaphor:

*“Endi safsar kechalarda oq*
*mash’alalar tutib, ulug‘vor*
*kengliklarda kezar chiroyli*
*kunduzlarni axtarib bahor.”*

In fact, the verb "to search" is known to apply to humans, but the context of the speech suggests that spring, like humans and creatures, can search for days. This poetic analogy is a kind of metaphor.

The author is able to use figurative meaning when expressing the image of nature in words. In particular, in the poem "MANZARA" you can see a number of original movements:

*"Xiralashar zirvalar qori,*
*so'lar ulkan loladay oftob,*
*bitta o'zim maysa yoyilgan*
*tepalikda o'qirdim kitob.*

*Kabutarlar uchganday bo'ldi,*
*shundoqqina yonimdan sarin*
*shabbodaday o'tardi o'ynab,*
*shohi ko'ylak kiygan nastarin...*

*Sochi qumrol, dudog'i lola,*
*yuzlari oq, yonoqlari ol,*
*o'ynab harir etaklarini,*
*quchoqlardi bolakay shamol.*

*Qoraygandi zirvalar qori,*
*allaqachon so'lgandi oftob,*
*bolashamol endi muk tushib,*
*tepalikda o'qirdi kitob."*

When analyzing Shavkat Rahmon's poems, one can see that he used a series of metaphors in some places. In the quoted poem, "faint" is used in reference to the sun, and "king's shirt" is used in reference to lilac. In the poem, the poet likens the wind to a child. He could have used a metaphor as a child. But instead of being confused,

he uses new words, such as "baby wind", "windboy", and new stylistic expressions. The third stanza of the poem uses a number of combinations such as "Curly hair", "tulip lip", "White faces", "purple cheeks", "Playing silk skirts" they are not used in its own sense. It is a collection of metaphorical meanings based on analogy.

**List of used literature**

1. Ортега-и-Гассет Х. Две главные метафоры. Теория метафоры. М., 1990. – С.68.

2. Булаховский Л.А. Введение в языкознание // Учпедгиз, 1954.– С. 177.

3. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент «Фан» нашриёти 1984. – Б.144.

4. Пинхасов Я. Ҳозирги замон ўзбек тили лексикаси, Тошкент, 1960, 14-б.

5. С. Усмонов, Метафора, «Ўзбек тили ва адабиёти», 1964, 4-сон, 35-б.

6. Л. Абдуллаева, Метафоралар ва уларнинг таржима қилиниши ҳақида баъзи мулоҳазалар, «Ўзбек тили ва адабиёти», 1965, 1- сон. – Б. 62-64.

7. Шавкат Раҳмон Абадият оралаб. Сайланма –Тошкент, 2012. 258 б.

## TABLE OF CONTENTS


| Sr. No. | Paper/ Author |
|---|---|
| 1 | **DASTURIY VOSITA YORDAMIDA TUPROQ HARORATIGA ISHLOV BERISH NAMLIGI VA CHUQURLIGINING BARQARORLIGINI ANIQLASH USULI**<br>Abdujalilov Sodiqjon Muhammadamin o‘g‘li, Parpiyev Sanjarbek Po‘lat o‘g‘li<br>**Page No.: 3-6** |
| 2 | **IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHTIRISHDA INKLYUZIV TA’LIMNING O‘RNI**<br>G‘aniyeva Adiba Tursinboy qizi<br>**Page No.: 7-10** |
| 3 | **MATLAB DASTURI SIMULINK PAKETI YORDAMIDA ELEKTR TOKINI O‘ZGARMAS HOLATINI IDENTIFIKASIYALASH MODELINI YARATISH**<br>Abdujalilov Sodiqjon Muhammadamin o‘g‘li, Parpiyev Sanjarbek Po‘lat o‘g‘li<br>**Page No.: 11-15** |
| 4 | **МАГНИЙЛИ ЎҒИТЛАР ИШЛАБ ЧИКАРИШ ЖАРАЁНИНИ ЎРГАНИШ ВА ТАХЛИЛ ҚИЛИШ**<br>Эркаев.А, Сайдуллаев .С<br>**Page No.: 16-19** |
| 5 | **MARKAZIY OSIYO VA AMIR TEMUR: AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH SIYOSATI**<br>Samandarov Sanjarbek Saidovich<br>**Page No.: 20-24** |

| |
|---|
| **6** |
| **O'SPIRINLIK DAVRIDA KOMMUNIKATIVLIK VA TASHKILOTCHILIKNI SHAKLI**<br>Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li<br>**Page No.: 25-29** |
| **7** |
| **TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLARI**<br>Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi<br>**Page No.: 30-32** |
| **8** |
| **ETNOLINGVISTIKANING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI**<br>Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi<br>**Page No.: 33-37** |
| **9** |
| **РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ**<br>Кораева Холида Фуркат кизи<br>**Page No.: 38-39** |
| **10** |
| **ТВОРЧЕСКИЕ ЗАДАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ ВОЕННЫХ ПСИХОЛОГОВ**<br>Утенбаева Гульжазира Мухтаровна,Абдувасиев Ботиржон Бахтиёр угли<br>**Page No.: 40-44** |
| **11** |
| **ТЕХНОЛОГИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНОГО ОБУЧЕНИЯ: АНИМАЦИЯ И ВИДЕОБЛОГГИНГ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА**<br>Утенбаева Гульжазира Мухтаровна,Байкобилов Шамсиддин Рашид угли<br>**Page No.: 45-48** |

| 12 |
|---|
| **TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYANI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR**<br>Abdusharipova Fazilat Farhodbek qizi<br>**Page No.: 49-53** |
| **13** |
| **ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**<br>Муртазоев Азамат Суннатулович<br>**Page No.: 54-58** |
| **14** |
| **KINO TA'LIMI VA INTERNET-TELEVIDENIESINING ASOSIY FUNKSIYALARI**<br>Yakubjonova Maftunaxon Islomjon qizi<br>**Page No.: 59-62** |
| **15** |
| **O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA HAL QILISH USULLARI**<br>Zaylovidinov Jaloliddin<br>**Page No.: 63-68** |
| **16** |
| **УСМОН АЗИМ ШЕЪРИЯТИДА ҚАЛБ ҲАРОРАТИ**<br>Исманжонова Мафтуна Турсунпўлат қизи<br>**Page No.: 69-72** |
| **17** |
| **TA'LIM JARAYONIDA O'SMIRLAR DIQQATINING RIVOJLANISH XUSUSSIYATLARI**<br>Karimov Sardorbek Anvarjon o'g'li<br>**Page No.: 73-80** |

| |
|---|
| 18 |
| **КАРТОШКА (*SOLANUM TUBEROSUM L.*) ЎСИМЛИГИДАН IN VITRO УСУЛИДА МИКРО ТУГАНАКЛАР ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ**<br>Хазратов Аббос Тўлқин ўғли<br>**Page No.: 81-84** |
| 19 |
| **ОЛТИНСОЙ ТУМАНИГА ТАБИИЙ ГЕОГРАФИК ТАВСИФ**<br>Бобораxматов Маъруф Эргашович Мирзо<br>**Page No.: 85-87** |
| 20 |
| **QAMASHI TUMANINING GEOLOGIK TUZILISHI VA RELYFI**<br>Yo'ldashov Davronbek Arziqul o'g'li<br>**Page No.: 88-90** |
| 21 |
| **ABDUG'ANI ABDUVALIYEVNING "MARHUMNING MAKTUBI" QISSASIDA DAVR VA INSON MUAMMOLARI**<br>Baxriddinova Muazzamxon Fazlitdin qizi<br>**Page No.: 91-94** |
| 22 |
| **RAHBAR KADRLARNI ISH USLUBIYATI VA UNI BOSHQARUVDAGI ROLI**<br>Karorov Akramjon Sattarovich<br>**Page No.: 95-98** |
| 23 |
| **OYATULLOH RUHULLOH HUMAYNIYNIG INQILOBIY HARAKATI**<br>Zikirov Qalandar Iskandar o'g'li, Abdullayev U.A<br>**Page No.: 99-104** |
| 24 |
| **O'SMIR QIZLARDA BULLINGNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**<br>Qaimova Gulmira Uchqun qizi<br>**Page No.: 105-107** |

| 25 |
| --- |
| **ONKOLOGIK GEMATOLOGIK KASALLIKLARGA CHALINGAN BOLALARNI DAVOLASHDA OTA-ONALARNING NOTO‘G‘RI XATTI-HARAKATLARI**<br>Qurbonova Gulmira Xamidjon qizi<br>**Page No.: 108-113** |
| 26 |
| **TA’LIM SIFATINI BAHOLASH SOHASIDAGI XALQARO TADQIQOTLARNING MUHIM JIHATLARI**<br>Расулова Гулнозахон Азамовна<br>**Page No.:  114-117** |
| 27 |
| **AHOLINING TURMUSH DARAJASINI BAHOLASH VA IQTISODIY O‘SISH**<br>Tursunov Farxod Baxodir o‘g‘li<br>**Page No.:  118-121** |
| 28 |
| **SHO‘R SUVNI TUZSIZLANTIRISH JARAYONI UCHUN SUVNING TARKIBINI ANALIZ QILISH**<br>J.A. Eshbobayev,O‘ng‘arov S<br>**Page No.: 122-124** |
| 29 |
| **THE WAYS OF MAKING METAFORA OF SYNTAX UNITS (ON THE EXAMPLE OF SHAVKAT RAHMON’S WORK)**<br>Durdona Yunusova Axtamovna<br>**Page No.:  125-131** |
| |

# "EDUCATIONAL RESEARCH IN UNIVERSAL SCIENCES"



## "INTERNATIONAL CONFERENCE ON INNOVATIVE DEVELOPMENT OF EDUCATION 2022/2"

**erus.uz**

**Languages of publication:** o'zbek, english, русский, қазақ, точик

**TASHKENT, UZBEKISTAN**

**2022/ JUNE 25**